

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04  
RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TURGANOV BAXIT KURBANBAEVICH**

**XORAZM VOHASINING METALLSOZLIK  
HUNARMANDCHILIGI TARIXI  
(Arxaik davrdan – XVI asrgacha)**

**07.00.01. – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Contents of the abstract of the doctoral (DSc) dissertation**

**Turganov Baxit Kurbanbaevich**

Xorazm vohasining metallsozlik hunarmandchiligi tarixi (Arxaik davrdan – XVI asrgacha).....3

**Турганов Бахыт Курбанбаевич**

История металлообрабатывающего ремесла Хорезмского оазиса (от архаического периода до XVI века).....33

**Turganov Bakhit Kurbanbaevich**

History of metalworking crafts of the Khorezm oasis (from the Archaic period to the XVI century).....67

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works**.....73

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04  
RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TURGANOV BAXIT KURBANBAEVICH**

**XORAZM VOHASINING METALLSOZLIK  
HUNARMANDCHILIGI TARIXI  
(Arxaik davrdan – XVI asrgacha)**

**07.00.01. – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi Byulletenida B2023.4. DSc/Tar384 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-tarix.nuu.uz) hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayev Utkir Ismailovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ataxodjayev Azimxo'ja Muzaffarovich**  
tarix fanlari doktori, professor v.b.

**Turayeva Sayyora Rustambayevna**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Raimqulov Abdisabur Azzamovich**  
tarix fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ) ilmiy darajasini beruvchi (DSc DSc.03/30.12.2019.Tar.01.04.-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "4" 12 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakulteti, 1-qavat 106-auditoriya). Tel.: (+99871) 227-12-24; faks: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (186 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, Bosh bino. Tel.: (+99871) 236-46-55; faks: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yilning "12" 11 kuni tarqatildi  
(2025-yil "28" 07 dagi 21 - raqamli reestr bayonnomasi).



**X.E. Yunusova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
professor

**J.E. Tog'ayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, t.f.f.d. (PhD), dotsent

**N.U. Musayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d.,  
professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish sharoitida hunarmandchilikning tarixiy asoslarini o'rganish, nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO ning "Kreativ shaharlar" tashabbusi doirasida bir qator shaharlar hunarmandchilik va amaliy san'at markazlari sifatida e'tirof etilgan<sup>1</sup>. YUNESKO bilan hamkorlikda faoliyat yuritayotgan "Jahon hunarmandlar kengashi (World Craft Council)" dunyoning turli mintaqalaridagi hunarmandchilik qadriyatlarini tiklash, o'rganish hamda targ'ib qilishi bo'yicha samarali faoliyat olib bormoqda<sup>2</sup>. Jahonda hunarmandchilik sohasini tadqiq etishda multiditsiplinar yondashuvlar (tarix, etnografiya, arxeologiya, iqtisodiyot, madaniyatshunoslik, menejment va dizayn kabi sohalarda) keng qo'llanilmoqda. Bu o'z navbatida xalqaro maydonda milliy hunarmandchilik faoliyati va uni rivojlantirishning tarixiy an'alarini tiklash borasida keng miqyosli ishlar olib borilayotganligini ko'rsatmoqda.

Dunyo ilm-fanida insoniyat sivilizatsiyasi rivojida muhim o'rin tutgan metallsozlik sohalari tarixi va uning rivojlanish muammolari ilmiy jihatdan o'rganilib, ularning yechimi yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Metallsozlik sohasining rivojlanishi bosqichlari, ishlab chiqarish markazlari va ularning qadimgi davr va o'rta asrlar hayotida tutgan ahamiyatini tadqiq qilish insoniyat jamiyati tarixining madaniy va iqtisodiy jihatlarini yoritish hamda talqin qilishda muhim o'rin tutadi.

Xorazm vohasi qadimdan Turon sivilizatsiyasining markazlaridan biri sifatida hunarmandchilikning turli jabhalari taraqqiy qilgan hududlardan biridir. Xususan, metallsozlik – ya'ni temirchilik, misgarlik, rixtagarlik va badiiy metall buyumlar yasash kabi hunarmandchilik tarmoqlari qadimdan izchil rivoj topgan. Voha yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda metallsozlikka oid ko'plab ashyoviy manbalar qayd qilingan. Xorazmdagi metallsozlik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi ustaxonalar, mahallalar, metallurgiya markazlari – uning arxaik davrdan – XVI asrga qadar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida tutgan o'rni, texnologik yangiliklari va transmissiyaviy madaniy ta'sirini o'rganish tarix fanlari tizimidagi dolzarb masalalardan biri sanaladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot ishi O'zbekistonda qadimiy hunarmandchilik taraqqiyotining sivilizatsiyaviy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini aniqlashga va umuminsoniy madaniy merosni to'ldirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr PF-5242-son "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari" to'g'risidagi, 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3393-son "Hunarmand" uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-noyabrdagi 960-son qarori "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazishning

<sup>1</sup> UNESCO. (2016). Creative Cities Network – Report of Activities. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. <https://en.unesco.org/creative-cities>

<sup>2</sup> Манба: <https://www.epch.in/policies/exportsofhandicrafts.htm>

tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 3-oktyabrdagi PF-5841-son “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazib borishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-77-son “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon, qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi<sup>3</sup>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy–ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>4</sup>.** Xorazm vohasining qadimgi va o‘rta asrlardagi metallsozlik sohasiga oid tadqiqotlar dunyoning qator yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, AQSH ning Indiana shtatidagi Perdyu universiteti, Rossiya FA Arxeologiya instituti, Moskva shaharidagi Sharq xalqlari davlat muzeyi, Sankt-Peterburg shahridagi Davlat Ermitaji, Boshqirdiston davlat pedagogika universiteti, Udmurdiya davlat universiteti va AQSH ning Michigan universiteti tomonidan olib borilmoqda.

Olib borilgan metallografik tahlillar Abu Muslim qal‘asi yaqinida o‘rta asrlarga oid temir metallurgiya markazi mavjudligini tasdiqladi hamda tigel usulida po‘lat ishlab chiqarilganligiga oid ilmiy nazariyalar ishlab chiqildi (Perdyu universiteti, AQSH)<sup>5</sup>; temir asri Quvisoy madaniyati (Sakar-chaga, Quvisoy-2), va Ko‘zaliqir madaniyati (Ko‘zaliqir qalasi) yodgorliklaridagi ustaxonalar va metall buyumlar, shuningdek antik davrdagi Qal‘aliqir 2 yodgorligidagi va Nurum qishloq makonidagi metallsozlik sohalari ustaxonalarni konstruktiv va texnologik jihatdan o‘rganilgan

<sup>3</sup> Хунармандчиликини янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб–қувватлаш чора–тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони // Халқ сўзи. –Тошкент, 2017 йил 21 ноябрь.; “Hunarmand” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2017 yildagi PQ–3393–son qarori//<https://lex.uz/docs/-3416129>.; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.11.2018 yildagi 960–son qarori “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazishning tashkiliy chora–tadbirlari to‘g‘risida”// <https://lex.uz/docs/-4082255>.; 2019 yil 3 oktyabrdagi PF– 5841–son “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazib borishga oid chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi // <https://lex.uz/uz/docs/-4535422>.; Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 28.11.2019 йилдаги ПҚ–4539–сон// <https://lex.uz/docs/4622088?ONDATE=24.03.2021>.; Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 30.12.2021 йилдаги ПҚ–77–сон // <https://lex.uz/docs/5807559>.

<sup>4</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://cla.purdue.edu/academic/rueffschool/ad/finearts/jewelrymetal.html>; <https://archaeolog.ru/scientific-departments/>; [https://www.orientmuseum.ru/collections/ancient\\_asia/index.php/](https://www.orientmuseum.ru/collections/ancient_asia/index.php/); [https://www.hermitagemuseum.org/explore/subcollections/element\\_51?lng=ru/](https://www.hermitagemuseum.org/explore/subcollections/element_51?lng=ru/); [bspu.ru/](https://www.bspu.ru/); [umich.edu/](https://www.umich.edu/)

<sup>5</sup> Brite E.B., Fletcher E., Cooper H. K., Amirov Sh., Iskanderova A., Toreniyazov A., Kidd F. J. & Khozhaniyazov G. Abu Muslim qala: an iron–production site along Central Asia’s medieval north–south trade routes // The Author(s), 2021. Published by Cambridge University Press on behalf of Antiquity Publications Ltd. Antiquity 2021 page 1 of 10 <https://doi.org/10.15184/aqu.2021.65>.; Apuzzo C., Cooper K., Brite E., Iskanderova A., Toreniyazov A.. Metal Production at Abu Muslim qala: An Analysis of Metallurgical Waste from a Medieval Site in Central Asia // [https://core.tdar.org/document.499746/metal-production-at-abu-muslim-qala-an-analysis-of-metallurgical-waste-from-a-medieval-site-in](https://core.tdar.org/document/499746/metal-production-at-abu-muslim-qala-an-analysis-of-metallurgical-waste-from-a-medieval-site-in).

hamda metall buyumlar tahlil etilgan (Arxeologiya instituti, Sharq xalqlari moddiy madaniyati va san'ati tarixi muzeyi, Rossiya )<sup>6</sup>; antik davrda va ilk o'rta asrlarda Xorazmdan tashqi savdoga chiqarilgan kumush idishlari kolleksiyasi, ularning epigrafik jihatlar va syujet kompozitsiyasi bo'yicha Sharq kumush idishlari kontekstida izlanishlar olib borilmoqda (Rossiya FA Sharq qo'l yozmalari instituti, Rossiya FA arxeologiya instituti, Davlat Ermitaji, Boshqirdiston davlat pedagogika universiteti, Udmurdiya davlat universiteti (Rossiya) va Michigan universiteti AQSH)<sup>7</sup>; Xorazmning ilk o'rta asr qal'alaridagi ishlab chiqarish jarayonlari va moddiy madaniyati misolida metallsozlik sohalari ustaxonalari va metall buyumlar o'rganilgan (Rossiya FA Arxeologiya instituti, Sharq xalqlari moddiy madaniyati va san'ati tarixi muzeyi)<sup>8</sup>.

Ushbu xorijiy ilmiy muassasalar tadqiqot natijalari Xorazm vohasining metallsozlik hunarmandchiligi tarixiga doir masalalarni zamonaviy ilmiy metodologiya asosida tadqiq etish, lokal topilmalarni global kontekstda baholash va texnologik jihatdan tahlil qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi**<sup>9</sup>. Xorazm vohasining metallsozlik hunarmandchiligi sohalari tarixi bugungi kunga qadar maxsus tadqiqot o'be'kti sifatida yaxlit holda o'rganilmagan. Lekin, XX asrning 50-yillaridan boshlab bugungi kunga qadar qadimgi va o'rta asrlar yodgorliklarida Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi va mahalliy arxeologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlardagi hisobotlar, ilmiy adabiyotlar klasterida tadqiqot mavzusiga aloqador axborot xarakteridagi ma'lumotlar uchraydi. Ushbu ishlarda metallsozlik hunarmandchiligi ustaxonalari va ularning mahsulotlarining qisqacha tavsifi yoritilgan. Sulstonuvays tog' tizmalaridagi qadimgi ruda konlari geologlar va arxeologlardan S.V.Lopatin, Q.O'razov, Yu.P.Manilov, S.A.Dudakovlar tomonidan qisman tadqiq qilingan<sup>10</sup>.

---

<sup>6</sup> Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья (археология и антропология могильников). – М.: Институт археологии РАН, 1996. – 185 с.; Болелов С. Б. Ремесло древнего Хорезма по археологическим данным этапы становления // РА. 2013. – Вып. 2. – С. 77–86.; O'sha muallif. Хорезм в раннем железном веке (этапы становления древнеземледельческой цивилизации в низовьях Амударьи) // Евразия: этнокультурное взаимодействие и исторические судьбы. – М., 2004. – С. 157 – 160.; O'sha muallif. Древний Хорезм в эпоху раннежелезного века по археологическим данным // История и археология Турана. – № 3. – Самарканд, 2017. – С. 67 – 88.

<sup>7</sup> Даркевич В.П. Художественный металл Востока VIII–XIII вв.: Произведения восточной торевтики на территории Европейской части СССР и Зауралья. – М.: Наука, 1976. – С. 103–114, 146–147.; Сокровища Приобья. Вступительная статья Б. Маршака. – СПб.: Формика, 1996.– С. 126–127; Лурье П.Б. Кумуш идишлар. Давлат эрмидажи тўплами (Биринчи кism). – Санкт–Петербург, Россия. Том. VIII. – Тошкент, “Silk Road Media”, “East Star Media” МЧЖ, 2020. – С. 384–385, 390–397.; Лившиц В.А. Три серебряные чаши из isaковского могильника. Могилника. № 1 // ВДИ. 2002. – №2. – С. 43–56.; Чичко Т.В. Восточная торевтика в системе культурных связей и военно–политической истории населения прикамья и приуралья в раннем средневековье (конец VI – первая половина IX вв.) // Дисс. на соис. канд. ист. наук. – Уфа. 2016. – 259 с. Илл.; Pandey A. Proposal to encode the Chorasmian script in Unicode// <https://escholarship.org/uc/item/5r936902>.

<sup>8</sup> Армарчук Е.А. Производственные печи на средневековом городище Садвар в Южном Хорезме // Проблемы истории, филологии, культуры. – Вып. XV. – Москва–Магнитогорск, 2005. – С. 81–90.; Вишневская Н.Ю. Ремесленные изделия Джигербента (IV в. до н.э – нач. XIII в. н.э.). – М.: Восточная литература, 2002. – 175 с.

<sup>9</sup> Mavzuning ilmiy o'rganilishi dissertatsiyaning II–bobida batafsil bayon qilingan.

<sup>10</sup> Лопатин. Горные клады // Советская Каракалпакия. – Нукус, 1965 г. 24 января; Оразов Қ. Каракалпакстанның қазылма байлықлары. – Нөкис, 1969. – Б. 5,64–67; Манылов Ю.П. Археологические памятники Султануиздага эпохи античности и средневековья.: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1972. – С. 16–17; Дудаков С.А. Памятники горного дела Султануиздага // Актуальные проблемы истории Каракалпакстана: Тез. докл. Респ. науч. конф. – Нукус, 1991. – С. 23–25.

Bundan tashqari, ba'zi turdagi metall buyumlar M. Mambetullayev, N.N.Vakturskaya, Yu. Manilov, M–Sh. Qdirniyazov, A. Iskenderova maqolalarida tahlil qilingan<sup>11</sup>. I. Jabbarov, S. Turayeva tadqiqotlarida Xorazmning so'ngi o'rta asrlardagi metallsozlik hunarmandchiligi sohaları tarixi o'rganilgan<sup>12</sup>.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021–2022-yillarda bajarilgan “O'zbek harbiy san'ati tarixi” nomli fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot vazifalari O'zbekiston tarixi sohasidagi mamlakatimizda olib borilayotgan ustuvor ilmiy tadqiqotlar yo'nalishiga mos keladi.

**Tadqiqotning maqsadi** Xorazmning arxaik davrdan – XVI asrgacha metallsozlik sohaları rivojlanishining tendensiyalarini o'rganish, metall buyumlarning lokal o'zgachaliklarini aniqlashtirish, xo'jalik turmushi, ijtimoiy- iqtisodiy, madaniy hayotdagi ahamiyati ochib berish va umumlashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mavzuning ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy va ma'naviy madaniyatimizdagi ahamiyatini yoritish hamda tarixiy kontekstda qadimgi va o'rta asrlar jamiyati hayotidagi o'rnini ko'rsatish;

metallsozlik sohalarining qadimgi va o'rta asrlar bosqichlaridagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, mahalliy va transmintaqaviy omillar ta'sirini farqlash;

Xorazmning temir va mis rudalarini qayta ishlovchi mahalliy metallurgiya markazlari, makonlarini aniqlash va mahalliy xom ashyoning rolini ko'rsatish;

metall buyumlardagi an'anaviylik, innovatsiya va transformatsion jarayonlarni tadqiq etish hamda texnologiyalaridagi o'zgarish dinamikasini kontekstual tadqiq qilish;

Xorazmning qadimgi va o'rta asr badiiy metall buyumlarning madaniy-ma'naviy hayotdagi hamda savdo-iqtisodiy aloqalardagi rolini yoritish;

metallsozlik sohalaridagi ijtimoiy-tashkiliy masalalarni tahlil qilish, ishlab chiqarishni tashkillashtirish, ixtisoslashuv va hunarmandchilik uyushmalari (risolalar asosida) tuzilmasini o'rganish.

**Tadqiqot obyekti.** Arxaik davrdan – XVI asrgacha Xorazm metallsozlik hunarmandchiligi sohalarining shakllanishi va rivojlanish tarixi belgilangan.

**Tadqiqot predmeti.** O'rganilayotgan davrdagi Xorazm metallsozlik sohalarining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, metall buyumlarni tasnifiy tahlil

---

<sup>11</sup> Мамбетуллаев М. Бронзовые украшения с Большой Айбуйир–кала // Вестник ККФАН УзССР. – Нукус.1984. №1 (95). – С. 47–50; Мамбетуллаев М., Юсупов О. Бронзовая бляшка с изображениями протомы коня // Вестник ККО АНРУз. – Нукус, 2006. №1. – С. 66–70; Вактурская Н.Н. Медные сосуды из средневекового замка Кават–кала // МХЭ. –М.: Наука, 1960. Вып. 4. – С.193–197; Маньлов Ю.П. Железные орудия труда VIII в. с городища Ток–кала // Вестник КК ФАН РУз. – Нукус, 1962. – № 3. – С. 80–83; Маньлов Ю.П. Бронзовая накладка со сценой охоты из Хорезма // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука,1979. – С.86–89; Кдырнязов М–Ш. Зеркала с изображением драконов из Миздахкана // Вестник ККОАНРУ. – Нукус, 2000. – № 3. – С. 70–71; Искандерова А. Художественная бронза средневекового Хорезма VI–XIV вв. // ИМКУ. – Выпуск 41. – Самарканд, 2021. – С. 149 – 166.

<sup>12</sup> Джаббаров И. Городское ремесло узбеков Хорезма в конце XIX и начале XX вв. // Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – М., 1954. – С. 11–13.; Тураева, С. XVIII асрнинг иккинчи ярми -XIX асрнинг 70-йилларида Хива хонлиги хунармандчилиги тарихи. – Т.: Янги нашр, 2018. – Б.96-128.

qilish, ularning madaniy va xo‘jalik hayotidagi ahamiyotini yoritish, ixtisoslashuv jarayonlari, hunarmandchilik uyushmalari, hunarmandchilik sohalaridagi ijtimoiy masalalar va ustaxonalarda mahsulot ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarni o‘rganish masalalari kiradi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda materiallarni tizimlashtirish, qiyosiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik va retrospektiv-tarixiy usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Mil. avv. VII–VI asrlarga oid Quyisoy va Ko‘zaliqir madaniyatlari yodgorliklaridagi materiallar asosida Xorazmda bronza quyish, qurolsozlik va temirchilik sohalarining shakllanishi va rivojlanishi, badiiy metall buyumlar ishlab chiqarishda ko‘chmanchilar dunyosi va Sharq san‘ati an‘analari asosida yo‘lga qo‘yilganligi yozma va arxeologik manbalar tahlili asosida dalillangan;

Antik davrda metallsozlik sohalarida mahsulot ishlab chiqarish miqdorining ortib borishi va geografiyasining kengayishi, xomashyo manbalari, qishloq makonlarida ham ustaxonalar tashkil etilgani, badiiy metall buyumlarni tayorlashda Sharq san‘ati ta‘sirining kuchayib borishi, ishlab chiqarishni tashkillashtirishning davlat nazorati, kasbiy boshqaruv, uy va jamoa xarakteridagi hunarmandchilik shakllari mavjudligi hamda sohaning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotdagi o‘rni asoslangan;

Xorazmning VI–VIII asrlar yodgorliklaridagi ustaxonalar, mehnat qurollari, badiiy metall buyumlarga oid topilmalar miqdorining ortib borishi, kumush idishlarning Sharqiy Yevropa bozorlariga tashqi savdoga chiqarilishi hamda mahalliy metallurgiya makonlari faoliyatiga oid arxeologik materiallar asnosida metallsozlik sohalarining taraqqiy qilganligi dalillangan;

IX–X asrlar qal‘alarida metallsozlik sohalarida bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi, ixtisoslashuv jarayonining yuz berganligi, badiiy metall buyumlarni bezatishda islom san‘atining ta‘siri, bezatish texnikasidagi yangiliklarning paydo bo‘lishi, eksportga mo‘ljallangan ot-ulov abzallari, qulflar tayyorlanganligi, mintaqaviy savdo-madaniy aloqalarda metall buyumlarning o‘rni, Anushtakin Xorazmshohlar davri shaharlarida metallsozlik sohalarining yuksak taraqqiy qilishi, metallsozlik mahallalarining paydo bo‘lishi, yirik shaharlarda hunarmandlar uyushmalarining shakllanishi aniqlangan;

Arxaik davrdan – XVI asrga qadar Sulton Sanjar, Sultonuvays tog‘ tizmalari va Sariqamish havzasida mahalliy rudani qayta ishlovchi metallurgiya makonlari faoliyati faqat ba‘zi davrlarda mavsumiy yo‘lga qo‘yilganligi tufayli Xorazm vohasi metallsozlik sohalarida xomashyo manbalarining asosiy ta‘minoti tashqi savdo-iqtisodiy aloqalar (O‘rta Osiyo, Sharqiy Yevropa va Sharq davlatlari) tizimi bilan bog‘liqligi, X–XIV asrlarga oid yodgorliklarda badiiy metall buyumlar va temirchilik mahsulotlari miqdorining ortib borishi, mog‘ullar bosqini davridagi biroz tanaffusdan so‘ng XIII asrning ikkinchi yarmidan XVI asrga qadar Xorazm qal‘alarida metallsozlik sohalarida ishlab chiqarishning qayta izchil davom etganligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalari ishonchliligi** yozma manbalar, ilmiy muassasalar hisobotlari, muzey fondlaridagi arxeologik topilmalar, arxiv materiallari hamda tarixiy, arxeologik va etnografik yo‘nalishdagi birlamchi nashrlarga asoslangan. Ish

umumqabul qilingan ilmiy-tadqiqot usullari va zamonaviy nazariy yondashuvlarga tayangan holda bajarilgan. Aniqlangan yangi ma'lumotlar amaliyotga joriy etilgan, ular asosida tegishli xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda Xorazm vohasida arxaik davrdan – XVI asrgacha metallsozlik hunarmandchiligining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ilk bor kompleks yoritildi. Metall buyumlarning moddiy madaniyatdagi o'rni, ustaxona faoliyati, texnologik usullar va jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati tizimli asosda tahlil qilindi. Ilgari surilgan ilmiy xulosalar metallsozlikka oid nazariy va amaliy muammolarni hal etishga, an'anaviy hunarmandchilik yo'nalishlarini qayta tiklash hamda ularni zamonaviy turizm va madaniy merosni asrash bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya natijalari muzey fondlaridagi metall buyumlarni tasniflash, kataloglar yaratish, ekspozitsiyalarni boyitish hamda Respublika va xalqaro ko'rgazmalarni tashkil etishda amaliy ahamiyatga ega. Shuningdek, "O'zbekiston tarixi", "O'zbekiston arxeologiyasi" kabi ilmiy nashrlar, oliy ta'lim muassasalaridagi maxsus kurslar uchun o'quv adabiyotlari yorathida foydalanish uchun tavsiya etiladi. Tadqiqotda ko'tarilgan masalalar va ularning yechimlari metallsozlik sohalarini milliy madaniyatimiz tarkibiy qismi sifatida ilmiy asosda o'rganishga zamin yaratadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.** Xorazmda metallsozlik sohalarining shakllanishi va rivojlanishi, metallurgiya va xom-ashyo manbalari, badiiy metall buyumlar hamda temirchilik mahsulotlarining tasnifiy o'rganilishi asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar quyidagi yo'nalishlarda joriy etildi:

Mil. avv. VII–VI asrlarga oid Quyisoy va Ko'zaliqir madaniyatlari misolida Xorazmda bronza quyish, qurolsozlik va temirchilik sohalarining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, badiiy metall buyumlar ishlab chiqarish kochmanchilar duniyosi va Sharq san'ati an'analari asosida yo'lga qo'yilganligi to'g'risidagi ilmiy tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanali orqali efirga uzatilgan "Ko'hna manzillar" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 11-fevraldagi 01-33/69-son ma'lumotnomasi). Ko'rsatuvda namoyish etilgan ilmiy materiallar teletomoshabinlarda metallsozlik sohalarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqidagi tarixiy bilimlarini oshirishga xizmat qilgan;

Antik davrda metallsozlik sohalarida mahsulot ishlab chiqarish miqdorining ortib borishi va geografiasining kengayishi, xomashyo manbalari, qishloq makonlarida ham ustaxonalar tashkil etilgani, badiiy metall buyumlarni tayorlashda Sharq san'ati ta'sirining kuchayib borishi, ishlab chiqarishni tashkillashtirishning davlat nazorati, kasbiy boshqaruv, uy va jamoa xarakteridagi hunarmandchilik shakllari mavjudligi hamda sohaning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotdagi o'rni to'g'risidagi tadqiqot natijalaridan Qoraqalpog'iston teleradio kompaniyasi "Qoraqalpog'iston tarixi" va "Miyras" ko'rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston teleradio kompaniyasining 2025-yil 20-martdagi 05-22/170-son ma'lumotnomasi). Natijalarning foydalanilishi tomoshabinlarda metallsozlik

sohalarining moddiy va ma'naviy madaniyatimizdagi ahamiyati hamda hunarmandlarning jamiyatidagi mavqeiga oid ishonchli tarixiy ma'lumotlarni xalqimizga namoyish etishga xizmat qilgan;

Xorazmning VI–VIII asrlar yodgorliklaridagi ustaxonalar, mehnat qurollari, badiiy metall buyumlarga oid topilmalar miqdorining ortib borishi, kumush idishlarning Sharqiy Yevropa bozorlariga tashqi savdoga chiqarilishi hamda mahalliy metallurgiya makonlari faoliyatiga oid arxeologik materiallar asnosida metallsozlik sohalarining taraqqiy qilganligi to'g'risidagi ilmiy natijalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasi tomonidan yodgorliklarni muhofaza qilish hamda targ'ibot qilish ishlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 15.04.2025-yil, 04-07/1427-sonli, 21.04.2025-yil, 04-05/1507-sonli; Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasining 15.04.2025-yil, 01-03/01-235-sonli ma'lumotnomalari). Natijada yodgorliklardagi hunarmanchilik ustaxonalarini konservatsiya qilish, maketlarini tayorlash hamda muzeylarda metall buyumlar ko'rgazmalarini tashkil etishda ilmiy metodik qo'llanma sifatida xizmat qilgan;

IX–X asrlar qal'alarida metallsozlik sohalarida bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi, ixtisoslashuv jarayonining kuchayishi, badiiy metall buyumlarni bezatishda islom san'atining ta'siri, bezatish texnikasidagi yangiliklarning paydo bo'lishi, eksportga mo'ljallangan ot-ulov abzallari, qulflar tayyorlanganligi, mintaqaviy savdo-madaniy aloqalarda metall buyumlarning o'rni, Anushtakin Xorazmshohlar davri shaharlarida metallsozlik sohalarining yuksak taraqqiy qilishi, metallsozlik mahallalarining paydo bo'lishi, yirik shaharlarda hunarmandlar uyushmalarining shakllanishi oid tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasidagi misgarlik va rixtagarlik yo'nalishlaridagi ustalar uchun uslubiy tavsiyalar berildi (O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasining 2025-yil 2-iyundagi №01-14/708-son ma'lumotnomasi). Natijada uyushma hunarmandlari qadimgi tajribalar va an'analarga asoslangan holda etnoturistik mahsulotlar yaratishda ilmiy asoslangan tarixiy bilimlarga ega bo'ldilar;

Arxaik davrdan – XVI asrga qadar Sulton Sanjar, Sultonuvays tog' tizmalari va Sariqamish havzasida mahalliy temir, mis rudalarini qayta ishlovchi metallurgiya makonlari faoliyati ba'zi davrlarda mavsumiy yo'ga qo'yilganligi, Xorazm vohasi metallsozlik sohalarida xomashyo manbalarining asosiy ta'minoti tashqi savdo-iqtisodiy aloqalar (O'rta Osiyo, Sharqiy Yevropa va Sharq davlatlari) tizimi bilan bog'liqligi, badiiy metall buyumlar va temirchilik mahsulotlarini tasnifiy tahlil qilish asnosida metallsozlik sohalarining X–XIV asrlarda taraqqiy qilishi, mog'ullar bosqinchiligi davridagi biroz tanaffusdan song XIII asrning ikkinchi yarmidan XVI asrga qadar Xorazm qal'alarida metallsozlik sohalarida ishlab chiqarishning qayta izchil davom etganligi to'g'risidagi ilmiy xulosalardan turizm va madaniy meros sohalarini integratsiya qilishda, Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi ekspozitsiyasini tashkil etishda hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyat vazirligi tomonidan madaniy ma'naviy targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining 06.02. 2025-

yil, 87-sonli; Qoraqalpog‘iston Respublikasi madaniyat vazirligi 07.04.2025, 8-03/758-sonli; Qoraqalpog‘iston Respublikasi Turizm boshqarmasi 27.06.2025, 02-15/04-189-sonli ma‘lumotnomalar). Mazkur ilmiy xulosalar turizm sohasida tarixiy-madaniy merosga asoslangan marshrutlarni shakllantirish, gidlar uchun metodik materiallar tayyorlash, hududning xalqaro turizm brendini rivojlantirish, tarixiy yodgorliklar va hunarmandchilik mahsulotlarini barqaror turizm resursiga aylantirishda amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 17 ta ilmiy konferensiyalarda, jumladan, 3 ta respublika, 14 ta xalqaro ilmiy-amaliy va nazariy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 41 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 23 ta maqola, jumladan, 16 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Ilova qismida xarita, rasmlar albomi va jadvallar keltirilgan. Tadqiqot hajmi 247 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, ishning maqsadi va vazifalari, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning metodlari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Metallsozlik hunarmandchiligi sohalariga oid manbalar tahlili**” nomlangan birinchi bobining birinchi qismida qadimgi va antik davrga oid manbashunoslik masalalari tahlil qilingan.

Qadimgi davr yozma manbalaridan “Avesto”, qadimgi fors bitiklari va yunon-rim mualliflari asarlarida Xorazmning metallsozlik buyumlari, qurol-aslahalariga aloqador ma‘lumotlar o‘z aksini topgan<sup>13</sup>. “Avesto” jamiyatida metallsozlik, jumladan qurolsozlik mahsulotlariga talab kuchli bo‘lgan. Asarda qurol-aslahalar turlari, qanday ma‘dandan yasalishi va shakllari to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud. Jumladan, o‘q uchlari, gurzi, oybolta, nayza, xanjar, qalqon, sovut, dubulg‘a va boshqada qurol-aslahalar tilga olingan<sup>14</sup>. Avesto jamiyatida temir haqida ilk tushunchalar paydo bo‘ladi (Sara ma‘dan, temirdan).

Binobarin, mil. avv. I ming yillik boshlarida qurol-yarog‘ va ot-ulov abzallarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan guruhlar mavjud bo‘lgan.

---

<sup>13</sup> Турганов Б. Хоразмнинг қадимги ва антик даврлардаги металлсозлик ҳунармандчилиги соҳаларига оид манбалар таҳлили // Globallashuv sharoitida ilm-fan muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Xo‘jand – Farg‘ona. 2024. – B. 155–161.

<sup>14</sup> Авесто: Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 4,5,12,51,53,57, 62,67–68.

Ahamoniylar davrini yorituvchi Persepol saroyi, Naqshi Rostam qoyasidagi boʻrtma tasvirlar xorasmiylar qiyofasi, usti–boshi va qurol–aslahalari toʻgʻrisida maʼlumotlar beradi. Persepol saroyida xorazmlilar oʻn yettinchi guruhda dudama xanjar, jangovar oybolta, bilaguzuk va otni oʻlpon sifatida olib kelayotgan manzarasi tasvirlangan<sup>15</sup>.

Yunon tarixchisi Gerodot (mil. avv. V asr) asarida Xorazm sarhadlaridagi massaget qavmlari haqidagi maʼlumotida “Ularning barcha buyumlari, asbob-anjomlari oltin va misdan ishlangan. Nayza, kamon paykonlari, harbiy boltalari misdan, bosh kiyimlari, kamarlari oltin bilan bezatilgan. Otlarning ustidagi bargustuvoni ham misdan toʻqilgan” deb yozadi<sup>16</sup>. Bu arxaik davrda qurolsozlik sohasida mis va bronzadan foydalanish keng tarqalganligidan dalolat beradi.

Tuproqqalʼa saroyi (II-III asr) hujjatlarida oshxona idish-tovoqlarini yetkazib berish yoki tayyorlash bilan shugʻullanuvchi kishilar haqida maʼlumotlar uchraydi<sup>17</sup>. Maʼlumki, antik davrda Xorazmda tayyorlangan kumush buyumlar tashqi bozorlarga chiqarilgan.

*Ikkinchi qism oʻrta asr manbalaridagi metallsozlik hunarmandchiligi sohalari haqidagi maʼlumotlarni tahlil qilishga bagʻishlangan.*

Arab va fors mualliflari asarlarida (X–XIV asr) Xorazmning metallsozlik mahsulotlari haqida qisqacha maʼlumotlari uchraydi<sup>18</sup>. Bu davrda Xorazm temirchilari tomonidan nafaqat, mehnat qurollari, xoʻjalik buyumlarini ishlab chiqarishgan, balki qalʼalar darvozalari uchun temir qoplamalar, osma koʻpriklar va harbiy texnikalarning temir konstruksiyali qurilishlarini tayyorlashgan<sup>19</sup>. Shuningdek, mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan qoʻrgʻoshin idishlarda Xorazm qovunlari Sharq mamlakatlariga eksport qilingan<sup>20</sup>.

Ayniqsa, X–XIV asrlarda Xorazmda tayyorlangan qulf, yugan–suvliqlar, oltin va kumush suvlarida ishlov berilgan egar–jabduqlar Sharq davlatlari va koʻchmanchilarga tashqi savdoga chiqarilgan va yuqori baholangan<sup>21</sup>. X–XII asrlarda metallsozlik sohasida ixtisoslashuv jarayoni yuz bergan. Sohada poʻlatdan foydalanish yolga qoyilgan hamda poʻlat qilichlar, qaychilar ishlatilgan<sup>22</sup>.

Ayniqsa, Anushtakinlar sulolasi davrida metallsozlik sohalari yuksak rivoj topadi. Mualliflardan al–Kurashi (XIII asr boshi) yozishicha, Xorazm qalʼalarida 50 ga yaqin hunarmandchilik turlari boʻlgan, Zakariya al–Kazvini (XIII asr) esa, “Gurganch aholisi mohir hunarmandlar, ayniqsa, temirchilik, duradgorlik va boshqa sohalar yuksak rivojlangan” deya koʻrsatadi<sup>23</sup>. Bu davrda qurolsoz va temirchilari

<sup>15</sup> Уилбер Д. Персеполь. Археологические раскопки резиденции персидских царей / Перевод с англ. Е.Л.Власовой. – М.: Наука, 1977. – С. 70–71.

<sup>16</sup> Древние авторы о Средней Азии (VI в. до н.э. — III в. н.э.). – Т.: Гостехиздат УзССР. 1940. – С. 21.

<sup>17</sup> Лившиц В.А. Документы из дворца Топрак–кала // Топрак–кала. Дворец. ТХАЭЭ, т. XIV, – М.: Наука, 1984. – С. 264.

<sup>18</sup> Турганов Б., Омонбаев Қ. Ёзма манбаларда ўрта аср Хоразм металлсозлик хунармандчилигига оид маълумотлар // Вестник КГУ им. Бердаха. – № 4 (58). – Нукус, 2022. – Б. 207–210.

<sup>19</sup> Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ). – М. – Л., 1939. Т. I. – С. 187–188.

<sup>20</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского завоевания. – Сочинения. Т. I. – М.: Наука, 1963. – С. 297.

<sup>21</sup> МИТТ. – С. 202; Якубовский А.Ю. Феодалное общество Средней Азии и его торговля с Восточной Европой в X–XV вв. // МИУТТ. – Л.: АН СССР, 1933. – С. 3–5.

<sup>22</sup> МИТТ. – С. 202; Иброхимов С. Фаргона шевалярининг касб–хунар лексикаси... – Б. 93.

<sup>23</sup> Буниятов З.М. Государство Хоразмшахов – Ануштегинидов... – С. 102.

tomonidan nafaqat an'anaviy qurol–aslahalar, balki turli xil harbiy mashina qurilmalarining metall konstruksiyalarini ham tayyorlashgan<sup>24</sup>.

“Ta’rif-u shahru Xorazm” risolasida mo’g’ullarga qadar davrda Xorazmda 1300 ta temirchilik do’koni, 1200 misgarlik do’koni bo’lganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan<sup>25</sup>. Jalollid Muhammad an–Nasaviy (XIII asr boshi), Mirza Ulug’bek (XV asr) asarlarida yozilishicha, mo’g’ullar Urganchni zabt etgandan so’ng yuz ming hunarmandni ajratib olishadi va o’z yurtlariga olib ketishadi<sup>26</sup>. Mazkur ma’lumotlar mo’g’ullar istilosiga qadar Urganch qal’asi Sharqdagi yirik hunarmandchilik markazi bo’lganligini ko’rsatadi.

Ibn Battuta (1333 yili) ta’riflashicha, xorazmliklar uylarini bezatishda hamda mehmondorchilikda oltin va kumush idishlardan foydalanishini ta’kidlaydi<sup>27</sup>. Ibn Arabshohning ta’kidlashicha, Amir Temur davrida ham Urganch bozorlarida hunarmandchilik mahsulotlari, jumladan, qurol–aslahalar, ov anjomlari, zargarlik buyumlari savdosi qizg’in tus olgan<sup>28</sup>. Boshqa manbada keltirilishicha, “Osiyoning ichkarisiga kirishning hojati yo’q, chunki Urganchdan Yevropa bozorlari uchun barcha kerakli mollarni topish mumkin” – deya ko’rsatilgan<sup>29</sup>.

Antonio Jenkinson (1558 y.) Xorazmda qurolsozlik sohasida qilich, o’q–yoy, nayza kabi an’anaviy qurol–aslahalar tayyorlanishi haqida yozadi<sup>30</sup>.

Shunday qilib, IX–XV asrlarda Xorazmda metallsozlik sohalari hunarmandchilikning rivojlangan tarmoqlaridan biri bo’lgan.

*Uchinchi qismda Xorazmda metallsozlik sohalari xom–ashyo manbalari to’g’risidagi ma’lumotlarni o’z ichiga olgan manbalar ko’rib chiqilgan.*

Yunon tarixchisi Gerodot (mil. avv. V asr) asarida massaget qavmlari to’g’risida “Ular temir va kumushdan umuman foydalanmaydi. Sababi ularning yurtida bu metallar yo’q, oltin va mis esa, juda ko’p” deb ma’lumotlar beradi<sup>31</sup>. Strabon “ularda kumush yo’q, temir ozchilik, mis va oltin serob” deb yozadi<sup>32</sup>. Manbalardagi ma’lumotlar o’z isbotini topmadi, ya’ni o’sha davrdagi Xorazm yodgorliklarida temirdan yasalgan mehnat qurollari keng tarqalgan.

Manbalarda mahalliy ruda konlari haqidagi ma’lumotlar uchramaydi. Elchi Ibn Fadlan (921–922 yy.) Xorazmga temir xom–ashyosi Volga bo’yidagi Bulg’or davlati bilan bo’ladigan savdo–sotiq orqali keltirilishini ta’kidlaydi<sup>33</sup>. Al–Maqdisiy yozishicha (985–yil), Volga bo’yi Bulg’oriyasidan Xorazmga qilich, kamon o’qlari, xanjar, sovut va mis xom–ashyosi keltirilgan<sup>34</sup>. Bulg’orda tayyorlangan qilich va

<sup>24</sup> An–Nasavi Muxammad. Жизнеописание султана Джала ад–Дина Манкбурны. – Баку, 1973. – С. 156, 231.; Мерям Гурбуз. Хоразмшоҳларда давлат ташкилоти, иқтисодий ва маданий ҳаёт. – Урганч, 2022. – Б. 195–198.

<sup>25</sup> Буниятов З.М. Избранные сочинения в трех томах. Государства Хорезмшахов ануштегинидов 1097–1231 гг. – Боку: Элм, 1999. – С. 151–153.

<sup>26</sup> Золотая Орда в источниках. Том 1. Арабские и персидские сочинения / Сост., Р.П.Храпачевского. – М.: Наука, 2003 – С. 129.; Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 329.

<sup>27</sup> Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. – Т.: Шарқ баёзи, 1993. – Б. 47–48, 59–60.

<sup>28</sup> Ибн Арабшах. Темур тарихи. – Т.: Чўлпон, 1994. – Б. 91.

<sup>29</sup> Pegollotti F.V. La Rratika della Mercature. Ed. by A. Evans. – Cambridge–Massachusetts. 1936. – Pp. 26–28.

<sup>30</sup> Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию в 1558–1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. – М.: Соцэкгиз, 1938. – С. 178.

<sup>31</sup> Древние авторы о Средней Азии. – Т.: Гостехиздат УзССР. 1940. – С. 21.

<sup>32</sup> Массон В.Н. К истории горного дела на территории Узбекистана. – Т.: Наука., 1953. – С.10.

<sup>33</sup> Ибн Фадлан– Путешествие Ибн Фадлана на Волгу. – М. Л.: Изд–во АН СССР, 1939. – С. 55, 57.

<sup>34</sup> Материалы по истории туркмен и Туркмении – Т. I. – М. – Л., 1939. – С. 202.

sovutlar Xorazm orqali Sharq davlatlariga tashqi savdoga chiqarilgan. Bu davrda Ozarbayjondan ham Xorazmga mis va boshqada buyumlar keltirilgan<sup>35</sup>.

IX–XV asrlarda Oʻrta Osiyoning Shosh, Fargʻona, Ustrushona, Xoʻjand, Nurota, Zarafshon togʻlarida temir, mis, qoʻrgʻoshin, oltin, kumush rudalarini qazib olish va qayta ishlash yoʻlga qoʻyilgan<sup>36</sup>. Bu oʻsha davrda Xorazm metallsozlik sanoati uchun xomashyo Oʻrta Osiyoning togʻli hududlaridan keltirilganligiga urgʻu beradi.

Xorazmga oʻrta asrlarda Xitoy, Hindiston, Eron kabi Sharq davlatlari va Oʻrta Osiyo viloyatlaridan qurol–aslahalar, mis, oltin, kumush qoʻymalari va dirhamlar, zargarlik va boshqada metall buyumlar, temir qoʻymalari savdo–sotiq aloqalari orqali kirib kelishgan<sup>37</sup>. Kumush qoʻymalari va dirhamlarning katta qismi Xorazm savdogarlari tomonidan Sharqiy Yevropaga tashqi savdoga chiqarilgan.

Italiyalik savdogar Fransisko de Balduchi Pegoloti (XIV asr) va Ibn Arabshohning asarlarida yozilishicha, Xorazmda rivojlangan oʻrta asrlarda kumush zahirasi koʻp boʻlgan<sup>38</sup>. Yozma manbalar tahlili, oʻrta asrlarda Xorazmga metall quymalari Oʻrta Osiyo, Ural va Volga boʻylari, Sirdaryo boʻyi, Janubiy Turkmaniston va Eron kabi bir nechta yoʻnalishlar boʻylab savdo–sotiq orqali kirib kelganligidan guvohlik beradi.

*Toʻrtinchi qismida temir va mis rudalarini qayta ishlash markazlari bilan bogʻliq Xorazm arxeologik materiallari tahlil qilingan.* Xorazm vohasi bronza davridan temir asrigacha Qizilqum va Zarafshon vohasidagi qalayli bronza konlaridan foydalanishgan<sup>39</sup>. Temir asridagi temir xom-ashyosining asosiy taʼminotchilari atrofdagi koʻchmanchi qabilalari boʻlgan, buni oʻsha davrdagi paleoekonomika tizimning boʻgʻini sifatida qaralishi mumkin. Shuningdek, Qizilqumdagi temir konlari<sup>40</sup>, Janubiy Turkmaniston (Kopetdogʻ, Janubi–Sharqiy Kaspiy boʻylari – Dehiston) hududlaridan ham temir keltirilgan, bu yoʻnalishda metallurgiya sanoati markazlari qayd etilgan<sup>41</sup>.

Tarixiy davrlarda metallsozlik sohalari xomashyo bazalari migratsion jarayonlar va savdo–iqtisodiy aloqalar taʼsirida oʻzgarib turgan.

Xorazmda ham arxaik davrdan mahalliy rudadan temir xom-ashyosini olish ishlari yoʻlga qoʻyilgan. Jumladan, Sulton Sanjar hududidagi tuzli botqoqliklaridan temir rudasini olish va qayta ishlash ishlari mil. avv. VI–V asrlardan to X–XII asrlarga qadar uzoq vaqt amalga oshirilgan<sup>42</sup>.

<sup>35</sup> Кошкарлы К.О. Города Азербайджана на трассах Великого Шелкового пути // Города и караван сараи на трассах ВШП. Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. – Ургенч, 1991. – С. 37–38.

<sup>36</sup> Худуд ул–олам. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б. 11, 15, 16, 20.

<sup>37</sup> Turganov B. Q. Xorazmning metallsozlik hunarmandchiligi. – Т.: Tafakkur avlodi, 2023. – В. 92–130.

<sup>38</sup> Pegollotti F.B. La Rratika della Mercature. Ed. by A. Evans. – Cambridge–Massachusetts. 1936. – Pp. 26–28.; Ибн Арабшоҳ. Ажойиб Ал–Макдур фитарихи Таймур... – Б. 88.

<sup>39</sup> Турганов Б.Қ. Бронза давридаги Жанубий Оролбўйи металлсозлик соҳаси хом-ашё манбалари // Оʻрта Осиyo moddiy madaniyati tarixi (II - xalqaro konferensiya materiallari). – Т.: Renessans press, 2024. – В. 78-83.

<sup>40</sup> Пругер Е.Б., Дрествянская Г.Я. Средневековый горный промысел Нуратау // История и археология Средней Азии. Ашхабад, 1978. – С. 216–217.; Манылов Ю.П. Исследования в Кызылкумах // АО.1985. 1987. – С. 595.; Shu muallif. Могильник Джужкудук–2 раннесакского времени в горах Букантау // ИМКУ. – Вып. 24. – Ташкент, 1990. – С. 33–38.

<sup>41</sup> Марущенко А.А. Елькен–депе // Тр. ИИЭА АН Туркменской ССР. 1959. – Вып.V. – С. 67.; Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА. – № 73. – М. – Л., 1959. – С. 106–108.

<sup>42</sup> Армарчук Е.А. Производственные печи на средневековом городище Садвар в Южном Хорезме... – С. 89.

Mis rudasini qayta ishlovchi markazlar Sultonuvays tog‘idagi Oq tog‘ (mil. avv. IV–II va X–XIV asr), Achchiq tog‘ (X–XIII asr), Shayxjalil tog‘i (XII–XIV asr), Zangi bobo (antik davr va XI–XIII asr boshi) hududlaridan aniqlangan<sup>43</sup>. Mis rudasi konlar yaqinidagi o‘choqlarda qayta ishlangan. Geologik qidiruv ishlari natijalari Sultonuvaysda oltin, mis, temir rudalari zahiralari va ruda eritishda foydalanadigan “flyus” deb nomlovchi kremen, izvest–okside moddalari mavjudligini ko‘rsatadi<sup>44</sup>.

Katta Qirg‘iz qal‘a (VII–VIII asr), Shayxjalil tog‘i atroflari (VII–VIII va XIII–XIV asr) da temir rudasini qayta ishlash yo‘lga qo‘yilgan<sup>45</sup>. Xom-ashyo sifatida Sultonuvays tog‘ida qazib olishga qulayli bo‘lgan limonitli ruda ishlatilgan<sup>46</sup>. Shayxjalil tog‘i atrofida ruda eritish ishlari tuproqqa ko‘milgan o‘choqlarda amalga oshirilgan. Bu joydagi 12 ming kub metr hududda sochilib yotgan temir chiqitlari buning yaqqol dalilidir. Shayxjalil tog‘i etagidagi Abu Muslim qal‘a konchilar qarorgohi joylashgan. Yangi tadqiqotlar ushbu hududdan tigel usulida po‘lat olish ishlari yo‘lga qo‘yilganligiga urg‘u beradi<sup>47</sup>.

Sariqamish hududida XV–XVI asrlarda temir rudasini qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan<sup>48</sup>. Spektranalitik va ximiyaviy tahlillar, bu joydagi dashqollar tarkibida 86 %, ruda tarkibida 58 % temir mavjudligini ko‘rsatadi. Temir rudasi Sariqamish qo‘ltig‘i botqoqliklaridan olingan.

O‘rta asr temir eritish markazlarida ruda bosma damli o‘choqlarda g‘alvirak temir shaklida ishlab chiqarilgan. G‘alvirak temir bo‘lagi temirchilar tomonidan qizdirib bolg‘alash usuli bilan qattiq siqilgan va mahsulot ishlab chiqarish uchun tayyor temir olingan. Dashqollar xom-ashyoni qazib olish va eritish joylaridan uzoqda joylashgan punktlarda temirchilik ishlari uchun yarim tayyor temir xom-ashyosi vazifasini bajargan. Bunday yarim tayyor xom–ashyoga qayta ishlov beruvchi ustaxonalar Kuyuk qal‘a (VI–VIII asr), Sadvar (IX–XI asr), Janpiq qal‘a, Mizdakxon mahallalari (XII–XIV asr) da aniqlangan.

Demak, arxaik davrdan –XVI asrga qadar Xorazmning metallurgiya makonlarida temir va mis rudalarini qayta ishlash ishlari mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, ma‘lum tarixiy davrlarda amalga oshirilgan. Shu sababli metallsozlik sohalarini xom-ashyo bilan doimiy ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘lmagan.

Dissertatsiyaning **“Ilmiy nashrlarda metallsozlik sohalarining yoritilishi: shakllanish va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tarixshunoslik masalalari tahlili amalga oshirilgan. Birinchi qismda temir asridagi Quyisoy madaniyati va Ko‘zaliqir madaniyatidagi metallsozlik sohalarining xarakterli xususiyati yoritilgan. V. Vaynberg, S. Trudnovskaya, L. Yablonskiy nashlarida Quyisoy madaniyati yodgorliklaridagi metallsozlik sohalarini va

<sup>43</sup> Маньолов Ю.П. Археологические памятники Султануиздага эпохи античности и средневековья... – С. 16.

<sup>44</sup> Лопатин С.В., Пругер Е.Б., Ермилов Л. Г Карта размещения древних выработок на территории Узбекистана. Т.1. Объяснительная записка. 1964. Рукопись фонда Реаизионно–тематической экспедиции Госгеолкома Узбекистана. №68.; Дудаков С.А. Памятники горного дела Султануиздага... – С. 24.

<sup>45</sup> Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского периода. – М.: Наука, 1966. – С. 101–103. Рис.51–53.; Дудаков С.А. Памятники горного дела Султануиздага... – С. 23–25.

<sup>46</sup> Лопатин С. Горные клады // Советская Каракалпакия. – Нукус, 1965. 24 января.

<sup>47</sup> Auzzo C., Cooper K., Brite E, Iskanderova A., Toreniyazov A.. Metal Production at Abu Muslim qala: An Analysis of Metallurgical Waste from a Medieval Site in Central Asia...

<sup>48</sup> Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого–этнографической экспедиции АНССР в 1949–1953 гг. // ТХАЭЭ. Том.2. – М.: Наука, 1958. – С. 138; Низовья Аму–дарьи, Сарыкамыш, Узбой... – С. 259–260.

mahsulotlariga oid ma'lumotlar uchraydi<sup>49</sup>. Quyisoy madaniyatida mil. avv. VII–VI asrlarda qurolsozlik ixtisoslashgan soha sifatida yuzaga kelgan<sup>50</sup>. Yodgorliklarda o'q uchlaridan tashqari, mehnat qurollari, xanjar, ot–ulov anjomlari va badiiy metall buyumlar uchraydi<sup>51</sup>.

Quyisoy-2 makonida metallga ishlov berish bilan bog'liq rixtagarlik, zargarlik sohalari izlari aniqlangan<sup>52</sup>. Mahalliy ustalar keng assortamendagi ot-ulov anjomlari va bronza buyumlarini ishlab chiqarishgan. Shuningdek, Quyisoy-2 makonida temirchilik hunarmandchiligi izlari uchraydi, bundan temir doshqollari dalolat beradi<sup>53</sup>. Bu davrda temirchilik sohasida mahsulot ishlab chiqarishi chetdan keltiriladigan xom-ashyoga asoslangan. Yodgorliklardagi temir bilaguzuk, bronza dastali temir chopqi, oltin qoplamali temir buyumlar Quyisoy madaniyatida temir nodir metall sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi<sup>54</sup>. Pichoqlar asosan bronzadan, qisman temirdan yasalgan.

Demak, mil. avv. VII–VI asrlarda Quyisoy madaniyatida temir buyumlar keng ko'lamda tarqalmagan bo'lib, bronzadan yasalgan mehnat qurollari va qurol-yarog'lar hali jamiyatda ustivor ahamiyotga ega bo'lgan.

S.P. Tolstov, O.A. Vishnevskaya, Yu.A. Rapoport, S. Bolelov tadqiqotlarida Ko'zaliqir madaniyati yodgorliklaridagi metallsozlik sohalari to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlar yoritilgan<sup>55</sup>. Ko'zaliqir qal'asidagi rixtagarlik va temirchilik ustaxonalari mil.avv. VI–V asrlar bilan belgilanadi<sup>56</sup>. Qal'a devorlari yaqinidagi temirchilik sohasiga oid ishlab chiqarish o'choqlari bosqonlar yordamida havo damlash texnologiyasidan foydalangan<sup>57</sup>. Bu davrda Ko'zaliqir qal'asi Xorazm vohasidagi bronza quyish, temirchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish markazi bo'lgan. Xorazmda temir buyumlar tarqalishi mil. avv. VII asrdan boshlanib, mil. avv. III–II asrlarga qadar davom etgan.

S.B. Bolelov ta'kidlashicha, Ko'zaliqir qal'asida temirchilik sohasida sopol tigellar ham ishlatilgan<sup>58</sup>. Xumbuztepa hunarmandchilik markazida kulolchilikdan tashqari, bronza va temir buyumlar ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan.

<sup>49</sup> Вайнберг Б.И. Куюсайская культура раннего железного века в Присарыкамьшской дельте Амударьи // УСА. – Л.: Наука, 1975. Вып. 3. – С. 42–48.; Shu muallif. Памятники Куюсайской культуры // ТХАЭЭ. –Том. XI. – М.: Наука. 1979. – С. 7–77.; O'sha muallif. Курганские могильники Северной Туркмении (Присарыкамьшская дельта Амударьи). – С. 167–178; Трудновская С.А. Раннее погребения юго-западной курганной группы могильника Туз-гыр // ТХАЭЭ. – Том. XI. – М.: Наука. 1979. – С. 101–111.

<sup>50</sup> Вайнберг Б. Памятники Куюсайской культуры // ТХАЭЭ. Т. XI. – М.: 1979. – С. 19–22, 26–27. Табл. XII, XV а.; Яблонский Л.Т. Материалы для классификации наконечников стрел раннесакского типа (по находкам в Южном Приаралье) // Древности скифской эпохи: Сборник статей. – М.: ИА РАН, 2006. – С. 277–296.

<sup>51</sup> Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья. – М.: РАН, 1996. – С.44-52. Рис. 10, 12, 14–21.

<sup>52</sup> Вайнберг Б.И. Куюсайская культура раннего железного века в присарыкамьшской дельте Амударьи. – С. 44–46.; Shu muallif. Памятники Куюсайской культуры. – С. 17–18, 22, 48. – Таблица. XI, а, б.

<sup>53</sup> Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры... – С. 24.

<sup>54</sup> Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья... – С. 34, 43, 212, 123. – Рис. 7, 8.; 5, 8.; 16, 1; 19, 12–13.; 21, 7, 8.

<sup>55</sup> Вишневская О.А. Раскопки городища Кюзелигыр // АО. 1978. – М.: Наука, 1979. – С. 567.; Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма // ВДИ. – М.: 1997. – № 2. – С. 150–173.; Болелов С.Б. Древний Хорезм в эпоху раннежелезного века по археологическим данным // История и археология Турана. – № 3. – Самарканд, 2017. – С. 67 – 88.

<sup>56</sup> Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзели-гыр... – С. 164. – Рис. 7.

<sup>57</sup> Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949–1953 гг. //ТХАЭЭ.1958. Т. II. – С. 149.

<sup>58</sup> Болелов С.Б. Ремесло древнего Хорезма по археологическим данным. Этапы становления... – С. 81–82.; Shu muallif. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма... – С. 7.

M.G. Vorobeva tomonidan Dingilja (mil. avv. VI – IV asr) qo‘rg‘onidagi rixtagarlik ustaxonasi va temirchilik o‘choqlari konstruksiyasi o‘rganilgan hamda metall buyumlar tahlil qilingan<sup>59</sup>. Dingilja vohasida temir, bronza buyumlarni ishlab chiqarish saviyasi ancha yuqori bo‘lgan.

Demak, Ko‘zaliqir qal‘asi, Dingilja va Bozor qal‘a yodgorliklarida temirchilik, rixtagarlik hamda zargarlik sohalariga ilg‘or texnologik usullar va innovatsion ishlab chiqarish tajribalari kirib kelganligi tufayli mahsulot ishlab chiqarish sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

*Ikkinchi qismida arxeologik materiallar asosida antik davr metallsozlik hunarmandchiligi sohaları tahlil qilindi.* Bu davrda Qo‘yqirilgan qal‘a, Tuproq qal‘a, Tuproq qal‘a saroyi, Kaparis, Qal‘aliqir, Elxoras va qishloq manzilgohlarida temirchilik, qurolsozlik, bronza quyish sohalarining xilma-xil mahsulotlari keng tarqalgan. Mazkur qal‘alaridan qayd qilingan sopol burun, qolip, ustaxona va o‘choqlar ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlarni to‘liqtiradi.

Qal‘aliqir 2 qal‘asida (mil. av IV–I asr)gi rixtagarlik, temirchilik o‘choqlari, tigel va sopol burun kabi artefaktlar asnosida ustaxonalar manzarasi hamda ishlab chiqarish o‘choqlari konstruktiv tuzilishi o‘rganilgan<sup>60</sup>. Mis eritish ishlarida sopol tigellar ham ishlatilgan.

Antik davrda temirchilik ustaxonalari qishloq makonlarida ham tarqalgan. Bu davrga oid Dovdon irmoqlariga yaqin Tarimqoya va Tuzqir qirlarida (mil. avv. IV-II asr) va Nurum vohasi, Ko‘hna-Uaz, Qal‘aliqir II qishloq makonlaridan hunarmandchilik izlari aniqlangan<sup>61</sup>. Nurum vohasida rixtagarlik va temirchilik sohaları izlari qayd qilingan<sup>62</sup>. Jumladan, Nurum vohasidagi 15– qo‘rg‘onida (I asr) yashash xonalari yaqinida temirchilik o‘choqlari konstruksiyasi o‘rganilgan<sup>63</sup>. Bu davrda Nurum manzilgohi Xorazm chekkasidagi ko‘p tarmoqli savdo-hunarmandchilik markazi vazifasini bajargan. Antik davrda Xorazmda qurolsozlik – metallsozlikning taraqqiy qilgan sohalaridan biri bo‘lgan<sup>64</sup>. Shuningdek, bu davrda kumush buyumlarni ham ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan va ularning bir qismi Ural bo‘ylariga eksport qilingan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, antik davrda metallsozlik sohalarida mahsulot ishlab chiqarish yangi bosqichga ko‘tarilgan, bu metall buyumlarning shakllari va turlarining xilma-xilligi, ularning sifat xususiyatlarining o‘zgarishi va yangi turdagi mahsulotlarning paydo bo‘lishi bilan ifodalanadi.

*Uchinchi qismda ilk o‘rta asrlarga oid metallsozlik hunarmandchiligi arxeologik materiallar asosida tahlil qilingan.* E.E. Nerazik, N.Yu. Vishnevskaya,

<sup>59</sup> Воробьева М. Г. Дингильдже. Усадьба I тыс. до н. э. в древнем Хорезме. – М.: Наука, 1973. – С. 5–7, 14, 149–175, 211–212, 218. – Рис. 1, 2, 4, 45, 46.

<sup>60</sup>Калалы–гыр 2. Культурный центр в Древнем Хорезме IV–II веке до н.э. / Отв. ред. Б.И.Вайнберг. – М.: Вост. лит., 2004. – С. 148–152. Рис. 4,1,2.

<sup>61</sup>Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I–XIV вв.). – М.: Наука, 1976. – С. 13–37.

<sup>62</sup>Болев С. Гончарство древнего Хорезма: формы организации ремесла (VI в. до н.э.– IV в. н.э.) // ЭО. 1997. – №2. – С. 72.

<sup>63</sup>Bolelov S.B. The Excavations of Settlem entat Nurum Oasis (the Northern Turikmenistan) // Проблемы истории, филологии, культуры. – Москва–Магнитогорск, 2005. – Вып. XV. – С. 101. Рис. 4:II.

<sup>64</sup>Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 77–100, 225–226.; Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Т.: Фан. 2007. – Б. 95–104.; Мамбетуллаев М. Вооружение и военное дело Хорезма // Археология Приаралья. – Нукус, 2006. – Вып. VI. – С. 21–31.

Yu.P. Manilov, V.N. Yagodin, E.A. Armarchuk, M.M. Mambetullayev asarlarida metallsozlik ustaxonalari va metall buyumlar to'g'risida ma'lumotlar uchraydi<sup>65</sup>.

Xorazmda VI–VIII asrlarda iqtisodiy rivojlanish va metallsozlik sohalari faollashuvi kuzatiladi<sup>66</sup>. Bu davrda Katta Qirqqiz qal'a va Burgut qal'a atroflari hunarmandchilik markazlariga aylanadi. Katta Qirqqiz qal'a atrofida (VII–VIII asr) mahalliy temir rudasini eritish, xomashyo tayorlash va temirchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlari yo'lga qo'yilgan<sup>67</sup>. Bu joydan kulolchilik va temirchilik sohaslariga bog'liq "qo'shimcha qurilishlar" aniqlangan. Shuningdek, Burgut qal'adagi 40x20 metr hajmdagi maydondan ham ishlab chiqarish bilan bog'liq qurilishda temir dashqol, shlaklar qayd qilingan<sup>68</sup>.

E.E. Nerazik ta'kidlashicha, qal'aning ushbu qismidagi qurilishlar savdo-sotiq va hunarmandchilik mahallasi rabod yoki yirik feodal ustaxonasi bo'lishi mumkin<sup>69</sup>. Bu davrdagi Yakka–Parson, Burgutqal'a, Norinjon bobo, Teshik qal'adagi boy assortamentdagi ko'plab topilmalar metallsozlik sohalari rivoj topganligidan guvohlik beradi<sup>70</sup>. VII–VIII asrlarga oid Hayvon qal'a, To'k qal'ada temirchilik va misgarlik ustaxonalari faoliyati yo'lga qo'yilgan<sup>71</sup>. To'k-qal'adan qayd qilingan ko'plab mehnat qurollari temirchilik sohasida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilganligidan dalolat beradi<sup>72</sup>. Kuyuk qal'adagi ustaxonada yarim tayyor temir dashqol xomashyosi qayta eritilgan va mahsulot tayyorlangan.

Xorazm qal'alarida VIII asr oxiri IX asrdan hunarmandchilik rabodlar paydo bo'ladi. Bu davrda Urganch, Kat, Jigarband, Sadvar qal'alari hunarmandchilik markazlariga aylanadi. Jigarband qal'asidan katta assortamentdagi qurolsozlik, temirchilik, rixtagarlik, misgarlik sohalari mahsulotlari qayd qilingan<sup>73</sup>. Metall buyumlar IX–XI asr, XII–XIII asrlar boshiga, aksariyati X asrga taalluqlidir.

E. A. Armarchuk Sadvar qal'asidagi IX–XI asrlarga oid 5 ta temirchilik o'choqlarini o'rgangan<sup>74</sup>. O'choqlar metallurgiya markazlaridan keltirilgan dashqolni qayta eritish va temirchilik mahsulotlarini tayyorlashga mo'ljallangan. Qal'adagi misgarlik ustaxonasidan XII–XIII asrlar boshiga qadar foydalanilgan<sup>75</sup>. Boshqa

<sup>65</sup> Неразик Е. Е. Сельское жилище в Хорезме (I–XIV вв.). – М., 1976. – С. 188.; Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества в низовьях Амударьи... – С. 159–174.; Вишневская Н.Ю. Ремесленные изделия Джигербента... –175 с.; Ягодин В.Н. Кердерское поселение Куюк–кала // АП. – Т.: Фан, 1984. – Вып. 2. – С. 58.; Армарчук Е.А. Производственные печи на средневековом городище Садвар в Южном Хорезме... – С. 81–90.; Ходжайов Т.К., Мамбетуллаев М.М. Раннесредневековый некрополь Куюккала. – М.: РАН. 2008. – С. 135–185.; Мамбетуллаев М., Юсупов О. Бронзовая бляшка с изображениями протомы коня... – С. 66–70.; Мамбетуллаев М. и др. Вооружение населения Кердера // Вестник ККО АНРУз. – Нукус, 2007. – С. 72–79.

<sup>66</sup> Турганов Б. и др. Общие тенденции развития ремесленного производства в раннесредневековые Хорезма // Международный научный журнал «Символ науки». 2021. – № 3. – С. 47–53.

<sup>67</sup> Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского периода. – М.: Наука, 1966. – С. 101–109. Рис. 52–53.

<sup>68</sup> Неразик Е.Е. Хорезм в IV–VIII вв. / Археология. Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. Средняя Азия в раннем средневековье. – М.: Наука, 1999. – С. 41–43.

<sup>69</sup> Неразик Е.Е. Сельское поселение афригидское Хорезма. – М.: Наука, 1966. – С.108–109.

<sup>70</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм... – Рис. 73, 74, а, 74 б.; Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества... – С. 170–174. Рис. 89–91.

<sup>71</sup> Турганов Б. Кердер маданияти металлsozlik хунармандчилиги // Fan va jamiyat. – №5/1. 2024. – В. 68–70.

<sup>72</sup> Манылов Ю.П. Железные орудия труда VIII в. с городища Ток кала... – С. 80–83.

<sup>73</sup> Вишневская Н.Ю. Ремесленные изделия Джигербента... – С. 82–92. Рис. 34–37, 41, 45.

<sup>74</sup> Армарчук Е.А. Производственные печи на средневековом городище Садвар в Южном Хорезме... – С. 81–90.

<sup>75</sup> Армарчук Е.А. Производственные печи на средневековом городище Садвар... – С. 89.

tadqiqotchilar tomonidan ham Sadvar qal'asining yuqori qatlamlarida temir dashqollari sochilib yotganligi qayd qilingan<sup>76</sup>.

Demak, Xorazmda IX–X asrlardan temirchilik, qurolsozlik, qulfsozlik, zargarlik, misgarlik va rixtagarlik sohaları rivojlana boshlaydi va bozor uchun mahsulot tayyorlash yo'liga qo'yiladi.

*To'rtinchi qismda rivojlangan o'rta asrlardagi metallsozlik sohalaridagi ixtisoslashuvi va metallsozlik mahallalari arxeologik materiallar va ilmiy nashrlar asnosida tahlil qilingan.* N.Vakturskaya, M.-Sh. Kdirniyazov, O.Dospanov, A.Aliakberova tadqiqotlarida XII–XIV asrlardagi Mizdakxon, Janpiq qal'a, Shexrlik va Shemaxa qal'alaridan metall topilmalar, ustaxonalar, ixtisoslashgan mahallalari aniqlangan<sup>77</sup>. XI–XIII asrlarga oid Jigarband, Qavatqal'a, Shoxsanam qal'a, Zamaxshar qal'alaridan misgarlik, rixtagarlik sohaları taraqqiy qilganligidan guvohlik beruvchi ko'plab topilmalar qayd qilingan<sup>78</sup>. Qavat qal'adan ishlab chiqarish o'choqlari aniqlanmagan bo'lsa ham, talkoxlorid toshidan tayyorlangan tigel, mis, bronza buyumlar, plastina, sim bo'lakchalari, shlak qoldiqlari va metall buyum parchalari topilgan<sup>79</sup>.

A.Aliakberova, O. Dospanov tomonidan Janpiq qal'asidagi XII–XIV asrlarga oid turar joylar va hunarmandchilik mahallasi tadqiq etilgan<sup>80</sup>. Qal'adagi hunarmandchilik mahallasi 900 kv.metr hududni tashkil etadi. Majmuada har bir xonada o'choqlarda sopol va metall quyqalari, mis sim, taxtachalar va temir qotishmalari uchraydi. Hunarmandchilik mahallasidan misgarlik, zargarlik, temirchilik, kulolchilik, shishasozlik ustaxonalari aniqlangan. Mahalladagi 15–xonada diametri 25–60 sm oralig'idagi beshta o'choq joylashgan. Xonadagi mis, temir shlaklari metallsozlik ishlari yo'liga qo'yilganligidan dalolat beradi. Mahallada mis va bronzadan buyumlar tayyorlash ishlari 11, 13, 27–xonalarda amalga oshirilgan. Janpiqal'adagi hunarmandchilik mahallasida temirchilikga nisbatan ko'proq rixtagarlik ishlari bilan shug'ullanishgan.

N. Vakturskaya tadqiqotlarida Shexrlik qal'asidan XII–XIV asrlarga oid hunarmandchilik mahallalari topilgan<sup>81</sup>. Qal'aning sharqiy qismida misgarlik, janubi-sharqida temirchilik mahallalari joylashgan. Yodgorlikda 3 ta temirchilik, 2 ta misgarlik ustaxonalar aniqlangan, rixtagarlik ishlarida foydalanuvchi tigel topilgan. Qal'adagi artefaktlar misga sovuq holda ishlov beruvchi misgarlik sohasi faoliyoti ham yo'liga qo'yilganligini ko'rsatadi. XIII–XIV asrlarga oid Shemaxa qal'aning shimoli-g'arbiy qismidan temirchilar mahallasi izlari aniqlangan<sup>82</sup>.

<sup>76</sup> Массон М.Е. Средневековые торговые пути из Мерва в Хорезм и в Мавераннахр (в пределах Туркменской ССР) // Тр. ЮТАКЭ. Т. 13. – Ашхабад, 1966. – С. 245.

<sup>77</sup> Вактурская Н.Н. О раскопках 1948 г. на средневековом городе Шемаха кала Туркменской ССР // ТХАЭЭ. – М.: АН СССР, 1952. Т.I. – С. 174.; Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма ... – С. 47–51. Рис. 3.; Рис.6; Алиакберова А. Ремесленный комплекс Джампык–калы // Вестник КК ФАН РУз. – Нукус, 1988. – № 4. – С. 89–93.; Доспанов О.Т. Жампык қала–орта эсир естелиги. – Нөкис: Қарақалпақстан. 1992. – Б. 85–96.; Қдырғиязов М.–Ш. Культура Хорезма XIII–XIV вв. – Самарканд, 2015. – С. 204–237.

<sup>78</sup> Турганов Б.К. Хоразмнинг IX–XIII асрлардаги бадий металл буюмлари // История и археология Приаралья. – Нукус. 2022. – Вып. – №3. – Б. 167–172.

<sup>79</sup> Маньлов Ю.П. Археологические материалы в фондах государственного музея искусств Каракалпакской АССР // Вестник ККФАНРУ. – Нукус, 1982. – №2. – С. 53–57.

<sup>80</sup> Алиакберова А. Ремесленный комплекс Джампык–калы... – С. 89–93.

<sup>81</sup> Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма ... – С. 47–51. Рис. 3; Рис.6.

<sup>82</sup> Вактурская Н.Н. О раскопках 1948 г. на средневековом городе Шемаха кала Туркменской ССР... – С. 174.

M.-Sh. Qdirniyazov tadqiqotlarida ham Mizdakxon mahallalaridagi XIII-XIV asrlarga oid to'rtta temirchilik va bitta mis eritish ustaxonalarining izlari aniqlangan<sup>83</sup>. Ulardan bitta temirchilik o'chog'ida yarim tayyor xom-ashyo - dashqolga ishlov berish ishlari amalga oshirilgan. X-XIV asrlarda Mizdakxon temirchilik, rixtagarlik va misgarlik hunarmandchiligi sohalari rivojlangan<sup>84</sup>.

N.N.Vakturskaya, G.A.Fedorov-Davidov, S.A.Trudnovskaya ishlarida Ko'hna-Urganch qal'asidan savdo- hunarmandchilik mahallalari o'rganilgan, jumladan Oltin O'rda (XIII–XIV asr), temuriylar (XV asr) davriga oid metallsozlik o'choqlari izlari topilgan<sup>85</sup>. Qal'a tashqarisidagi Xorazm-bog' majmuasidan (XIII-XIV asr) ham temirchilik ustaxonasi bo'lgan<sup>86</sup>.

Xorazmda o'rta asrlarda temirchilik hunarmandchiligi faoliyati nafaqat qal'alarda, balki qishloqlarda ham yo'lga qo'yilgan. XIII–XIV asrlarga oid Aqcha-Gelin qishloq makonidagi temir shlaklari buni to'la tasdiqlaydi<sup>87</sup>. XII–XIII va XIV asrlarga oid Aygeldi, Davdon, Daryolik ko'l qishloq makonlaridan xilma-xil assortamentdagi temirchilik mahsulotlari va rangli metall buyumlar aniqlangan<sup>88</sup>.

Temurlar davriga oid Urganch, Xiva, Vazir-Davkesken, Shemaxa-qal'a, Shexrlik, Mizdakxon, Kat qal'alaridagi ustaxonalari izlari, metall buyumlar va ularning fragmentlari metallsozlik sohalorida ishlab chiqarish izchil davom etganligidan dalolat beradi<sup>89</sup>. Bu davrda Sariqamish havzasi mahalliy rudani qayta ishlash va temirchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish markazi bo'lgan.

Demak, XI–XIII asrlarda metallsozlik sohalari yuksak taraqqiy etgan, mo'g'ullar bosqinchiligi davridagi qisqa tanaffusdan so'ng esa XIII asrning ikkinchi yarmidan XVI asrgacha bu sohalarda ishlab chiqarish izchil davom etgan.

Dissertatsiyaning **“Badiiy metall buyumlar va temirchilik mahsulotlarining moddiy va ma'naviy madaniyatimiz hamda madaniy aloqalarni o'rganishdagi ahamiyati”** nomli uchinchi bobning *birinchi qismida arxaik va antik davr badiiy metall buyumlarning madaniy va ma'naviy hayotdagi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.*

Arxaik davrga oid ba'zi badiiy metall buyumlar haqida L. Yablonskiy, M. Vorobeva va M. Mambetullayev tadqiqotlarida ma'lumot berilgan<sup>90</sup>. Bu davrdagi Quyisoy madaniyati badiiy metall buyumlarida skif-sak dunyosi bilan genetik va

<sup>83</sup> Кдырнийазов М.–Ш. Культура Хорезма XIII–XIV вв.// Автореф. дис. докт. ист. наук. – Самарканд, 2005. – С.25.

<sup>84</sup> Кдырнийазов М.–Ш., Турганов Б. Железные изделия из средневекового Миздакхана// Вестник ККОАНПУз. – Нукус, 2007. – № 4. – С. 82–85.

<sup>85</sup> Вактурская Н.Н. Раскопки городища Ургенч в 1952 г. // ТХАЭЭ. Т.II. – М.: Наука, 1958. – С.467–499.; Федоров–Давыдов Г.А. Раскопки торгово–ремесленного квартала XV–XVII вв. на городище Таш–кала // ТХАЭЭ. Т.II. – М.: Наука, 1958. – С. 505–528.

<sup>86</sup> Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого–этнографической экспедиции в 1949–1953 гг... – С. 231.

<sup>87</sup> Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I–XIV вв.). – М.: Наука, 1976. – С. 106–113, 130.

<sup>88</sup> Вишневская О.А. Археологические разведки на средневековых поселениях... – С. 54–68; Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме... – С. 69, 70, 73, 110, 130, 135. Рис. 63–66, 82, 97.

<sup>89</sup> Турганов Б. Темур ва темурийлар даврида Хоразмда металлсозлик хунармандчилиги // Mirzo Ulug'bek – buyuk mutafakkir olim va davlat arbobi. Xalqaro ilmiy–amaliy anjuman materiallari. – T., 2024. – B. 150–154.

<sup>90</sup> Воробьева М. Г. Дингильдже. – С.162–175; Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья... – С. 47–49.; Мамбетуллаев М. Бронзовые украшения с Большой Айбуйир–кала... – С. 47–50.

madaniy aloqalar yaqqol kuzatiladi<sup>91</sup>. Sakar-Chaga va boshqada yodgorliklardan topilgan qurol-yarog'lar, ot-ulov anjomlari hamda badiiy metall buyumlar qoplon, sher, ot, qush va boshqa yovvoyi jonzotlar qiyofasida skif-sak san'ati an'analari ta'sirida ishlangan<sup>92</sup>.

Bu davrga oid Ko'zaliqir madaniyatiga oid badiiy metall buyumlar qadimgi Sharq san'ati usulida ishlab chiqarilgan. Xususan, Ahamoniylar hukmronligi davrida Xorazmda badiiy metall buyumlarni Sharq san'ati an'analari usulida tayorlash kuchayadi. Qadimgi Xorazm ustalari Fors imperiyasida urfda bo'lgan zoomorfik va majoziy obrazlarni o'zlashtiradilar, ularga did va texnik imkoniyatlarga mos ravishda o'zgartirishlar kiritadilar. Arxeologik topilmalardan Humbuztepa maskanidagi ajdar boshli sopol qolip, bosh qismi ot shaklida ishlangan bronza to'qnog'ich, Aybuyir qal'adagi sher boshi tarzidagi grivna, Dingilja yodgorligidagi sher boshi tarzli bronza shokila va ilon boshli bilaguzuklar, Tuproq qal'adagi sher boshli bilaguzuk va boshqada badiiy metall buyumlar bundan dalolat beradi<sup>93</sup>. Demak, arxaik davrda Xorazmda badiiy metall buyumlarni ishlab chiqarish Orolbo'yi dasht qabilalari va Eron, Old Osiyo xalqlari san'ati bilan o'zaro madaniy aloqalar ta'sirida rivojlangan.

Antik davr badiiy metall buyumlarini bezak buyumlari, ro'zg'or buyumlari va marosim buyumlariga ajratish mumkin<sup>94</sup>. Yodgorliklarda Sharq amaliy san'atiga xos sher, ot, tuya, cho'chqa va xo'roz obrazlaridagi zoomorfli bronza shokilalar, bosh qismi antronomorf va geometrik shakllarda yasalgan metall to'g'nog'ichlar uchraydi. Tuproq qal'a saroyi (I-II asr)dan qo'l panjasi shaklidagi bosh qismida olma yoki anor tutgan bronza to'qnog'ich topilgan. Bu davrdagi ba'zi uzuklarga zoomorfli, antromorfik tasvirlar, tang'a va geometrik belgilar tushirilgan. Bu davrdagi badiiy metall buyumlarni Sharq amaliy san'ati an'analari asosida tayyorlash ustuvorlik qilgan, lekin Xorazmda ko'chmanchilarning madaniy ta'siri saqlanib qolgan.

Marosim buyumlari orasida "skif-sak uslubida" bezatilgan bronza qozonlar (Burli qal'a, Mizdakxon) ham uchraydi. Ulardan birining dastasi ot tarzida bo'lib, bu uning ritual funksiyasi bilan bog'liqdir.

Antik davrda Xorazmda kumush idishlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Mil.avv. III-II asrlardayoq badiiy bezatilgan yozuvli kumush idishlar Kama va Ural bo'yi mintaqasiga eksport qilingan<sup>95</sup>. Tuproq qal'adan ustki yuzasi ochiq chanoqsimon kumush idish aniqlangan. Tuproq qal'a (III-IV asr), Kunya-Uaz, Kaparis, Mizdakxon nekropoli (III-IV asr)dan bronza va mis qoshiqlar topilgan. Ularning rezervuar qismi tuxumsimon, unchalik chuqur emas, bezaksiz va so'qma yasalgan. Bu davrda metall qoshiqlar ro'zg'orda emas, diniy marosimlarda va pardo-andoz ishlarida qo'llanilgan.

<sup>91</sup> Турганов Б. Арал өңірі мен Хорезмдегі сақтардың металл бұйымдары // «Современные исторические и историко-антропологические исследования Евразии» материалы II Международного научно-практического семинара, посвященного 100-летию К.А. Акишева. Астана, 2024. – С. 74–79.

<sup>92</sup> Turganov B. Xorazmning arxaik davrdagi badiiy metall buyumlari // O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi. 44-nashr. "Fan" nashriyoti, 2024. – B. 154–165.

<sup>93</sup> Турганов Б. Хоразмнинг архаик ва антик даврдаги зооморф билагузуклари // O'zbekiston arxeologiyasi muammolari. Respublika ilmiy konferensiyasi tezislari. – Toshkent: Renessans press, 2024. – B. 76–81.

<sup>94</sup> Турганов Б. Хоразмнинг антик даврдаги заргарлик буюмлари таснифи // Марказий Осиё тарихи ва маданияти мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2023. – Б. 80–84.

<sup>95</sup> Лившиц В.А. Три серебряные чаши из исаковского могильника. Могильника. – №1 // ВДИ.2002. – №2. – С. 43–56.; Сальников К.В. Хорезмская тамга в Зауралья // ТХАЭЭ. Том.1. – М., 1952. – С. 195–196.

Antik davrga oid o‘ziga xos topilmalardan biri Tuproqqal’a saroyidagi sherning bosh qiyofasida ishlangan oltin suvi yuritilgan bronza niqobdir<sup>96</sup>. Ular dumaloq shaklda, do‘ngsimon. Ularga o‘xshash bezak buyumlaridan sak qabilalarida bosh kiyimlarni bezatishda va kamar nishonlari sifatida foydalanishgan<sup>97</sup>.

Demak, badiiy metall buyumlarning tahlili antik davr Xorazm aholisining mifologik tasavvurlarini tiklash imkonini berib, unda qadimgi Sharq va ko‘chmanchilar san’ati an’analari sintezini kuzatish mumkin.

*Ikkinchi qismda ilk o‘rta asrlar kumush idishlari va ularning madaniy va diniy-ma’naviy hayotdagi ahamiyati hamda Xorazmning Sharqiy Yevropadagi tashqi savdo aloqalaridagi o‘rni o‘rganilgan.* Xorazmda VI–VIII asrlarda tayyorlangan kumush idishlar Sosoniylar, O‘rta Osiyo va Vizantiya kumush idishlari qatorida Shimoliy o‘lkalarga tashqi savdoga chiqarilgan hamda ular bilan raqobatlasha olgan. Ular Azov, Dog‘iston, Kavkaz, Kama daryosi va Ural hududlaridagi 9 ta arxeologik nuqtadan 12 dona topilgan bo‘lib, bu Sharqdan keltirilgan kumush idishlarning 8 % ni tashkil etadi<sup>98</sup>. Kumush idishlarning Xorazm madaniy muhitiga aloqadorligi ilk bor S.P.Tolstov va A.I.Terenojkin asarlarida o‘rganiladi<sup>99</sup>. Xorijiy mutaxassislardan V.P. Darkevich, V.Yu. Leshenko, A. Pandey asarlarida ham Xorazm kumush idishlari Sharqning kumush idishlari konteksida tahlil qilingan<sup>100</sup>. Kumush kosalar qo‘yidagicha tasniflandi: I - Guruhdagi “To‘rt qo‘llik ma’buda tasvirli kosalar”: taxtda o‘tirgan to‘rt qo‘llik ma’buda (1-shakl); sher ustidagi to‘rtqo‘llik ma’buda (2-shakl); yurib borayotgan sher ustidagi to‘rt qo‘llik ma’buda (3-shakl).

II guruhdagi “Antromorfologik tasvirlar aks etgan kosalar”: gilamchada o‘tirgan shoh (1-shakl) va suvoriy tasvirlangan kosa (2-shakl).

III guruhdagi “Zoomorfli va mifologik syujetli kosalar” ikkita shaklga ajraladi: ostadonni qo‘riqlayotgan ikkita arslon tasvirli kosa (1-shakl) va echki boshli tik turgan ma’bud tasvirlangan kumush kosa (2-shakl).

IV guruhdagi “O‘simliksimon va chiziqsimon bezakli kosalar” ikkita shaklga ajraladi: aylanasiga yaproqlar va chiziqlar bilan bezatilgan kosalar (1-shakl) va moychechak gulli kosa (2-shakl).

Xorazmning VI–VIII asrlarga oid kumush kosalari o‘zaro o‘xshash texnologik usulda tayyorlangan, o‘lchamlari yaqin bo‘lib, ko‘pchiligida qadimgi Xorazm yozuvlari va o‘yma bezaklar uchraydi; ularning tasvirlari xilma-xil bo‘lsa-da, barchasi Xorazmning diniy tasavvurlari va madaniy muhitini aks ettiradi.

Demak, VI–VIII asrlarga oid kumush idishlar Sharq xalqlari madaniy aloqalari ta’sirida shakllangan hamda Xorazmda o‘ziga xos lokal yo‘nalishga ega maktab

<sup>96</sup> Топрак кала. Дворец // ТХАЭЭ. Том. XIV. 1984. – С. 55,82. – Рис. 25.

<sup>97</sup> Акишев К.А. Курган Иссык. Искусство саков Казахстана. – М.: Искусство. 1978. – С. 24–25. Табл. 13.

<sup>98</sup> Чичко Т.В. Восточная торевтика в системе культурных связей и военно–политической истории населения прикамья и приуралья в раннем средневековье.... – С. 57.

<sup>99</sup> Толстов С.П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнехорезмийский алфавит // ВДИ, 1938, – № 4. – С. 120–145.; Тереножкин А. И. К истории искусства Хорезма. Рельеф «сасанидского» блюда и архитектурные памятники Хорезма // Искусство, 1939, – № 2. – С. 121-126.

<sup>100</sup> Даркевич В.П. Художественный металл Востока VIII–XIII вв.: Произведения восточной торевтики на территории европейской части СССР и Зауралья. – М.: Наука, 1976. – С. 103–114, 146–147.; Лещенко В.Ю. Восточные клады на Урале в VII–XIII вв.: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Л., 1971. 22 с.; Pandey A. 2019 – Proposal to encode the Chorasmian script in Unicode // UC Berkeley Proposals from the Script Encoding Initiative. – P. 1- 61. <https://www.unicode.org/L2/L2018/18164r2-chorasmian.pdf>.

bo'lgan. Bu davrda Xorazm san'atida –badiiy metall va boshqa sohalarda So'g'd, Toxariston, Hindiston, Sharqiy Turkiston va qo'shni ko'chmanchilar bilan madaniy aloqalar izlari mavjud. Kumush idishlar, asosan, mahalliy buyurtmachilar – shoh saroyi, mulkdorlar, ibodatxonalar va tashqi bozor ehtiyojlariga mo'ljallangan holda, aniq va o'ziga xos talablarga asosida tayyorlangan. Shu davrda Xorazmda tor guruhdagi ixtisoslashgan hunarmandlar qatlami shakllangan.

Kumush idishlardagi tasvirlarning diniy semantikasida Xorazmning Islomgacha davrdagi mifologiyasi, xudolar panteoni va ma'naviy dunyosi tushunchalari to'g'risida ma'lumot beradi.

*Uchinchi qismda o'rta asrlar badiiy metall buyumlari tasnifiy tahlil qilingan, shuningdek, amaliy san'at va madaniy aloqalardagi o'рни o'rganilgan.* Ular qo'yidagi guruhlariga ajraladi: ro'zg'or idishlari (kosa, tovoq, likobcha, ko'za, qoshiq); oshxona idishlari (qozon, tog'ora, tova); bezak buyumlari (shokilalar, kamar to'qalari, nishon, qadama bezaklar va zoomorf buyumlar); pardoz–andoz buyumlari (usmadon, soch turmagich, qisqich, quloq tozalagich, munchoq, bronza ko'zgu); kundalik hayotda maxsus ahamiyatga ega buyumlar (shamdon, chiroq, siyohdon, tarozi pallalari, og'irlik toshlari, zanjir va boshqa<sup>101</sup>. Ular bronzadan qo'yma usulda, mis plastinadan so'qma tayyorlangan hamda qolipaki, kandakori bezaklar berilgan.

Xorazmning VI–VIII asrlarga oid Norinjon bobo, Tuproqqal'a, Burgutqal'a taqirlari va Kuyuk qal'a nekropolida kamarlar to'plami detallari - to'qa, nishon va qadama bezaklari, bezatilmagan ko'zgu, kosa, surmadan, tuya, xo'roz va cho'chqa ko'rinishidagi shokilalar tarqalgan<sup>102</sup>.

Xorazmda VIII–IX asrlarda badiiy metall buyumlar oddiyligi, ishlov berish texnikasining pastligi va nisbatan kamligi kuzatiladi. X–XI asrlardan badiiy metall buyumlarni ishlab chiqarishda va bezak berishda yangi davr boshlanadi. Bu davrda Islom san'ati an'alarida badiiy metall buyumlarni murakkab o'simliksimon, geometrik hamda epigrafik naqshlar bilan bezash urfga kirib, nasx va kufiy husnixatida ezgu tilaklarni bitish an'anasi shakllanadi<sup>103</sup>. Jigarband (X asr)dagi bronza medalionga nasx husnixatida “Baxt, boylik va omad”, kumush patnis (XI asr) chekkalariga ko'fiy husnixatida Amir va uning hokimiyatiga hamdusonalar va ezgu niyatdagi tilaklar yozilgan. Shohsanam qal'asidan topilgan bronza qozonda (XIII asr boshi) “... marhamatli xudodan baxt va sog'liq, marhamat, quvonch” kabi ezgu tilaklar bitilgan<sup>104</sup>. Ba'zi metall buyumlarda turunjlar ichiga uslublashtirilgan qush va hayvonlar tasviri hamda epigrafik naqshlar tushirilgan. Shuningdek, X–XIII asr boshiga oid bronza buyumlarning ba'zi qismlari zoomorfli tarzda yasalgan. Ulardan ot qiyofasidagi bezak buyumi, qush ko'rinishidagi qubba, qush ko'rinishidagi chiroq dastasi, ot tuyag'i tarzli shamdon oyoqlari shular jumlasidandir.

<sup>101</sup> Turganov B., Allamberganov A., Najimova F., Rzambetova G. Artistic metal products of Khorezm during the revival period // Journal of Pharmaceutical Negative Results. Volume 14, Special Issue 2, 2023. – Pp. 1295–1304.

<sup>102</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм.... – Рис. 64, 73, 74; Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества в низовьях Амударьи. – М.: Гриф и К, 2013. – С. 171–172.

<sup>103</sup> Турганов Б. Хоразмнинг ўрта аср бадий металл буюмларида Ислом маданиятининг акс этилиши // Марказий Осиё ва Ислом цивилизацияси. Республика илмий анжумани тўплами. – Т., 2018. – Б. 323–325.

<sup>104</sup> Турганов Б. Хоразмнинг IX–XIII асрлардаги бадий металл буюмлари // История и археология Приаралья. – Нукус, 2022. – Вып. 3. – С. 167–173.

XI–XIV asrlarga oid maxsus ahamiyatga ega bo‘lgan buyumlardan shamdon va uning qismlari, chiroq, tarozi pallalari, og‘irlik toshlari, qo‘ng‘iroqlar va boshqalar o‘lka xalqlarining xo‘jalik turmushi, savdo-sotiq uskunalari to‘g‘risida boy ma‘lumotlar beradi<sup>105</sup>. XII–XIII asr boshida Xorazmda bronza shamdonlar keng tarqalgan. Ular konstruktiv jihatdan stvol, likobcha va uch oyoqli taglikdan iborat. Ba‘zi detallariga geometrik va epigrafik naqshlar tushirilgan.

Xorazm yodgorliklardagi badiiy metall buyumlarining katta qismi XI–XIV asrlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda ularning miqdor jihatdan o‘sishi, ishlov berish texnikasining takkomillashuvi, buyumlar shaklining ko‘payishi kuzatiladi. Ularni tayyorlash texnologiyasi va bezak berish usullari Movarounnahr va Xurosonning hunarmandchilik markazlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Xususan, XI–XIII asr boshi badiiy metall buyumlarni ishlab chiqarish taraqqiy qilgan davr sifatida izohlanadi.

Xorazmda mo‘g‘ullar bosqinchiligidan so‘nggi davrda badiiy metall buyumlarni ishlab chiqarishda biroz tushkunlik yuz beradi: mahsulot hajmi qisqaradi va ularni bezatishda oddiylik ustivorlik qiladi. Shunga qaramasdan, bu davrga oid bronza ko‘zgular va boshqada ba‘zi buyumlar bezatilishi jihatdan ajralib turadi hamda o‘lka xalqlarining madaniy hayoti va tashqi aloqalari to‘g‘risida boy ma‘lumotlar beradi<sup>106</sup>.

*Dissertatsiyaning to‘rtinchi qismi Xorazmning o‘rta asrlardagi temirchilik mahsulotlarini tavsifiy tahlil qilishga bag‘ishlangan.* O‘rta asr temirchilik mahsulotlari: dehqonchilik qurollari, duradgorlik asboblari, xo‘jalik va ro‘zg‘or buyumlari va ot–ulov anjomlariga ajratib o‘rganildi<sup>107</sup>. Ularning o‘xshashliklari va funksional vazifalari aniqlandi, arxeologik va etnografik materiallar asosida transformatsion o‘zgarishlar tahlil qilindi.

Tasnifiy tahlillar natijasida, o‘rta asrlarda Xorazm temirchilari tomonidan keng assortamentdagi mahsulotlar ishlab chiqarilganligi aniqlandi. Bu davrda temirchilik mahsulotlari nafaqat keng tarqaladi, balki funksiyalaridagi o‘zgachaliklariga ko‘ra xilma–xil shakllari bo‘lgan. Jumladan, bellarning 4 ta shakli, ketmon 3 ta shakl, o‘roq 3 ta shakl, bolta 3 ta shakl, tesha 2 ta shakl, pichoqning 3 ta shakli aniqlandi. Dehqonchilik, duradgorlik qurollari, xo‘jalik buyumlari va ot-ulov anjomlarining transformatsion o‘zgarishlari ilk o‘rta asrlarga qadar yakunlangan. Keyingi davrlarda faqat o‘xshash variantlar paydo bo‘lgan yoki ularning konstruksiyasida qisman innovatsion o‘zgarishlar amalga oshirilgan. Jumladan, o‘roqlar va bellarda konstruksion o‘zgarishlar kuzatiladi.

Ayniqsa, XI–XIV asrlarda temirchilik hunarmandchiligi yuksak rivojlanish bosqichiga ko‘tarilib, pichoqsozlik, qulfsozlik, anjomsozlik, dehqonchilik qurollari, duradgorlik asboblari hamda ro‘zg‘or va xo‘jalik buyumlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashuv kuchayadi; xususan, qulfsozlik va anjomsozlik

<sup>105</sup> Турганов Б., Байниязов А. Средневековые весы Хорезма // Инновационная наука. Международная журнал. – №1. 2020. – С. 33–37.

<sup>106</sup> Турганов Б., Даўбаева Т. Бронзовые зеркала Хорезма в период Золотой Орды // Международный научный журнал «Символ науки». – № 1–1. 2022. – С. 23–29.

<sup>107</sup> Turganov B.Q. Xorazmning metallsozlik hunarmandchiligi. – T.: Tafakkur avlodi, 2023. – B. 131–173.; Shu muallif. Железные орудия труда средневекового Хорезма (VII–XIV вв.) // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2006. – № 1. – С. 60–63.; Shu muallif. Хоразмнинг ўрта асрлардаги дурадгорлик асбоблари (VIII–XIV асрлар) // История и археология Турана. – №1. – Самарқанд, 2013. – Б. 185–192.

mahsulotlarining tashqi savdoga chiqarilgani bu jarayonni yaqqol tasdiqlaydi. Bu davrda Xorazm temirchilari oshiq–moshiqli qaychilar (XI asr), ikki quloqli bel (XI asr), bel kapcha (XIII–XIV asr) kabi yangi o‘ziga xos lokal xususiyati bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishadi.

Dissertatsiyaning **“Metallsozlik sohalarida ishlab chiqarishni tashkillashtirish, ixtisoslashuv, hunarmandchilik uyushmalari va texnologik jarayonlar tahlili”** deb nomlanuvchi to‘rtinchi bobining birinchi qismida arxaik va antik davrlarda metallsozlik sohalarida ishlab chiqarishni tashkillashtirish masalalari tahlil qilindi.

Arxaik davrda Quvisoy madaniyati manzilgohlarida temirchilik, qurolsozlik, rixtagarlik va zargarlik ixtisoslashgan sohalarga aylangan, yodgorliklardagi metall topilmalar miqdorining ortishi va sifatining yuksalishi buni tasdiqlaydi. Quvisoy hunarmandlari jamoa hamda qo‘shni jamoalar buyurtmasiga ko‘ra, ot anjomlari, qurol-yarog‘ va boshqa metall buyumlar tayyorlaganligi, mahsulotlarning ayrim partiyalari tovar almashuvi uchun ishlab chiqarilganidan dalolat beradi. Bu davrda metallsozlik sohalari jamoaviy va uy hunarmandchiligi xarakterida bo‘lgan.

Arxaik davrda Xorazmga janubiy hududlardan hunarmandlar guruhlarining kirib kelishi bilan metallsozlik sohalarida ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari vujudga keladi. Bu davrda temirchilik sohasida Ko‘zaliqir qal‘asida bozor uchun mahsulot yetkazib berish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, Ding‘ilja qishloq makonlarida jamoa hunarmandchiligi ustunlik qilgan<sup>108</sup>. Shu bilan bir qatorda zargarlik va rixtagarlik sohalarida tovar ayirboshlash va buyurtma asosida qo‘shni jamoalar uchun ham mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bu davrda qurolsozlik jamoa hunarmandchiligi sifatida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, antik davrdan davlat nazoratidagi sohalaridan biriga aylanadi.

E.E.Nerazik va S. Bolelov fikrlaricha, antik davr Xorazm qal‘alari hunarmandchilik markazi funksiyasidan yiroq bo‘lgan<sup>109</sup>. Jumladan, arxaik davrda Xumbuztepa, antik davrdagi Nurum vohasidagi ko‘p tarmoqli hunarmandchilik markazlari qal‘alardan olisda joylashgan<sup>110</sup>.

Mazkur hunarmandchilik markazlari davlat nazoroti asosida tashkil etilgan kasbiy boshqaruv shakli bo‘lishi mumkin. Bu davrda saroy va ibodatxonalar tasarrufida ham ishlab chiqarish ustaxonalari bo‘lgan. Xususan, Sulton Sanjar yaqinidagi temir rudasini qayta ishlovchi makoni, Sultonuvays tog‘idagi Aqtog‘, Zangi bobo makonlarida mis rudasini qayta ishlash markazlaridagi ishlari davlat yoki kasbiy boshqaruv tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan.

Xorazmning antik davr yodgorliklaridan metallsozlik sohalariga taalluqli bitta yoki ikkita ustaxonalar aniqlanishi, o‘lkada asosan individual ustaxonalarda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilganligidan guvohlik beradi. Ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, ularda qaram va erkin hunarmandlar bo‘lgan. Shuningdek, mil. avv. III–II asrlarda Xorazmda tayorlangan kumush idishlarning Ural bo‘ylariga eksportga chiqarilishi, bu davrda tovar hunarmandchiligi

<sup>108</sup> Болелов С.Б. Ремесло древнего Хорезма по археологическим данным... – С. 83–85.

<sup>109</sup> Неразик Е.Е. Древние города Хорезма и пути их развития (IV в. до н. э. – IV в. н. э.) // Центральная Азия. Источники, история, культура. – М.: ИВЛ, 2005. – С. 557.

<sup>110</sup> Болелов С. Гончарство древнего Хорезма: формы организации ремесла.... – С. 72.

xarakteridagi ixtisoslashgan erkin hunarmandlar qatlami bo‘lganligidan dalolat beradi<sup>111</sup>. Kushon-afriqidlar davrida ham ishlab chiqarishni tashkillashtirishda biror keskin o‘zgarishlar bo‘lmagan. Bu davrda ham qishloq makonlarida uy va jamoa hunarmandlarining kichik ustaxonalarida temirchilik ishlari amalga oshirilgan.

Tahlillar, antik davrda metallsozlik sohalarida ishlab chiqarishni tashkillashtirishning turli shakllari mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

*Ikkinchi qismda Xorazmning metallsozlik sohalaridagi ixtisoslashuv va hunarmandchilik uyushmalarining ijtimoiy jihatlari ko‘rib chiqilgan.*

Xorazmda V-VIII asrlarda metallurgiya markazlari, temirchilik va qurol-yarog‘ ishlab chiqarish ustaxonalari davlat nazoratida yoki yirik feodallar tomonidan tashkil etilgan. Bu haqida Katta Qirg‘iz qal‘a, Abumuslim qal‘a atroflaridagi metallurgiya makonlari, Burgutqal‘a, Kuyukqal‘a, Hayvonqal‘adagi temirchilik ustaxonalaridagi arxeologik materiallar dalolat beradi. Shuning bilan birga temirchilik sohasida qishloq jamoalari buyurtmalari asosida mahsulot tayyorlovchi uy va jamoa hunarmandchilik shakli ham mavjud bo‘lgan.

E. E. Nerazikning ta‘kidlashicha, Burgut-qal‘adagi ishlab chiqarish qurilishi yirik feodalga tegishli bo‘lishi mumkin, ehtimol, u faqat Bergut-qal‘a aholisiga xizmat qilgan, unda qo‘rg‘on egasiga qaram hunarmandlar ishlashgan. Xususan, IV–VI asrlarda Yaqin Sharq va Eronda yirik yer egalari ustaxonalari bo‘lgan<sup>112</sup>. Bunday ustaxonalarda qaram hunarmandlar va qullar ishlashgan.

Rivojlangan o‘rta asrlarda ham ba‘zi hunarmandchilik sohalarida qullar yoki asirlar mehnatidan foydalanish davom etgan. Al-Istahriy asarida (X asr), Samarqandda qul savdosida qullarga kasb o‘rgatish katta daromat keltirishi aytib o‘tiladi<sup>113</sup>. Klavixoz Gonzelos kundaligida yozilishicha (1404-yil), Samarqand shahari chetidagi podshoh qasri yaqiniga bir mingga yaqin hunarmand asrlar joylashtirilgan. Ular saltanat uchun yil bo‘yi sovut, dubulg‘a, kamon, nayza yasaganlar<sup>114</sup>. Qurolsozlik sohalarida hunarmand qullar mehnatidan foydalanish Xiva xonligida so‘nggi o‘rta asrlarda ham qisman bo‘lgan. Shunday bo‘lsada, VI–VIII asrlarda tashqi bozor uchun raqobat bardosh kumush buyumlarning ishlab chiqarilishi ixtisoslashgan erkin hunarmandlar guruhi bo‘lganligiga urg‘u beradi.

Xorazmda IX–X asrlarda tashqi savdo va urbanizatsion jarayonlarning rivoj topishi bilan metallsozlik sohalarida ixtisoslashuv jarayoni boshlanadi, erkin hunarmandlar qatlami shakllanadi va bozor uchun mahsulot ishlab chiqarish kuchayadi. X–XI asrlarda misgar, kumushchi, qulfsoz, pichoqsoz, anjomsozlik ixtisoslashgan sohalarga aylanadi<sup>115</sup>. Bu davrda Xorazmning qulfsoz va anjomsoz hunarmandlari tomonidan tayorlangan qulf, uzangi, suvliqlar tashqi savdoga chiqarilgan.

XIII asr boshida Xorazm qal‘alarida 50 ga yaqin hunarmandchilik sohalarini bo‘lgan<sup>116</sup>. An–Nasaviy yozishicha, Sind daryosi bo‘yidagi jangdan keyin Jaloliddin

<sup>111</sup> Лившиц В.А. Ко‘rsatilgan adabiyot. 2002. – №2. – С. 43–56.

<sup>112</sup> Пигулевская Н.В. Из истории экономических отношений Ирана в IV–VI вв. // Краткие сообщения Института востоковедения. – Вып. XIV. 1955. – С. 46.

<sup>113</sup> Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. – Тошкент: Шарқ баёзи, 1993. – Б. 25.

<sup>114</sup> Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи. 1994. – Б. 252.

<sup>115</sup> МИТТ. Том.1. – С.202.; Иброҳимов С. Ко‘rsatilgan adabiyot. – Б. 93.

<sup>116</sup> Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов–Ануштегинидов... – С. 102, 228.

Manguberdi o‘ziga qarashli harbiy aslahalar ishlab chiqaruvchi korxonalaridan birida, sovut ustaxonasida ishlovchi usta Jamol az – Zarrad (tangali sovut yasovchi hunarmand)ga ustozdor unvonini berganligini yozgan<sup>117</sup>.

Mazkur ma’lumotlar qurolsozlik sohasida davlat korxonalari bo‘lganligini va sohada ichki ixtisoslashuv yuzaga kelganligini e’tirof etadi.

Xorazmda metallsozlik sohasida mahallalar, hunarmandchilik uyushmalari va sexlar Anushtakin Xorazmshohlar davrida yuzaga kelgan. XII-XIV asrlarga oid Shahrlilik va Shemaxa qal’adan temirchilar va misgarlar mahallalari qayd qilingan bo‘lib, bu metallsozlik sohasida hunarmandlar uyushmasi yuzaga kelganligidan dalolat beradi. Qishloq makonlaridagi temirchilik sohasi bevosita uy hunarmandchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Mazkur bobning “*Hunarmandchilik risolalari ijtimoiy munosabatlarni yorituvchi manba*” deb nomlanuvchi uchinchi qismida metallsozlik sohalari risolalarining ijtimoiy ahamiyati tahlil qilindi.

Xorazmning metallsozlik sohasiga oid risolalar I. Djabbarov, A. Shamansirova, S. Turaeva, Sh. Matyakubov tadqiqotlarida yoritilgan<sup>118</sup>. Risolalar - hunarmandchilik uyushmalari, sex va shirkatlarni diniy, iqtisodiy, huquqiy va kasbiy tomondan tartibga soluvchi huquqiy hujjat bo‘lgan. Hunarmandchilik ustaxonasi a’zolari va hunarmandlar uyushmasining ichki tartib qoidalari risola asosida boshqarilgan va nazorat qilingan.

Metallsozlik sohasidagi risolalar o‘rtasidagi farqlarga qaramay, metallga ishlov berish hunarmandlarining umumiy homiysi hazrati Dovud hisoblangan. Shuning uchun metallsozlik sohasiga oid turli kasblar risolalarining mazmuni ko‘p jihatdan o‘xshash bo‘lgan.

XIX asr o‘rtalariga oid Xorazmdagi “Temirchilik risolasi”ning mazmunini quyidagi qismlarga ajraladi<sup>119</sup>. 1. Risolaga qat’iy amal qilish; 2. Temirchilikning Dovud payg‘ambarga va sohasidagi pirlariga berilishi jarayoni, undagi mo‘jiza va jazolar; 3. Hunarmandlarning darajalari; 4. Risolaning zarurligi va o‘rganishning ahamiyati; 5. Hunarmandchilik tarixi haqida savol-javob; 6. Hunarmandchilik asboblarini ishlatish qoidalari; 7. Hunarmandning odob-ahloq normalari va ish tartibi; 8. Takbir aytish qoidalari; 9. Ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabat; 10. Mukofotlanish uchun qilinadigan ishlar; 11. Hunarmandga beriladigan jazo va uning muqarrarligidan ogohlantirish.

Mazkur temirchilik risolasida “Hunarmandchilik qirq bir hunardur. Avval so‘zangaronlik, mixgarlik, ketmongarlik, kardgarlik, zargarlik, misgarlik, shuningdek boshqa hunarlar ham ko‘pdir, muxtasar shuldir”, deyiladi<sup>120</sup>. Metallsozlik risolalaridagi ma’lumotlar hunarmandchilikning ko‘p tarmoqli va ixtisoslashgan tizimga ega bo‘lganidan guvohlik beradi.

<sup>117</sup> Ан–Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти... – Б. 110.

<sup>118</sup> Джаббаров И. Городское ремесло узбеков Хорезма в конце XIX и начале XX вв... – С. 11–13; Шамансирова А. Интересные материалы о ремесленных организациях в Хиве XIX века // ОНУ. – Т., 1965. – №10. – С. 62–65; Тураева, С. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг 70-йилларида Хива хонлиги хунармандчилиги тарихи. – Т.: Янги нашр, 2018. – Б.158-166.; Matyakubov Sh. XVI–XVIII asr birinchi yarmida Xiva xonligi hunarmandchiligi tarixi // Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Urganch, 2024. – B. 117–128.

<sup>119</sup> Matyakubov Sh.S. Ko‘rsatilgan adabiyot. – B. 117–128.

<sup>120</sup> Рисолаи шариф. “Рисолаи шариф”..... Қўлёзма. – Б.7.

*To'rtinchi qismda metallsozlik sohalaridagi texnologik jarayonlar, asbob-uskunalari va ishlab chiqarish o'choqlari konstruksiyalari o'rganildi.*

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Farg'onadagi cho'yan buyumlar (mil. avv. II asr), Parfiya temirchilik mahsulotlari va Marg'iananing sifatli po'lat qurol-aslahalar ishlab chiqarilish texnologiyasi Xorazmning antik davr hunarmandlari tomonidan o'zlashtirilgan<sup>121</sup>. Bu shunga bog'liqlik, yozma manbalar va tarixshunoslik asarlarida antik davrda Xorazmda yuqori sifatli qurol-aslahalarni tayyorlash yo'lga qo'yilganligi etirof etilgan.

Ar-Roziy (IX asr) ma'lumotlariga ko'ra, temirchilik ustaxonasida o'choq, tigel, kovsh (maxsus cho'mich), teridan tayyorlangan dam, yarim silindrsimon temir shakl (rat) va boshqa asbob-uskunalar ishlatilgan<sup>122</sup>. Abu-l Fazl Xubaysh Tiflisi (1121-1204 yy.) risolasida ustaxonalarda ishlatiladigan asbob-uskunalaridan tashqari, qurolsozlik sohalarida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasidagi sir-sanoatlar, ularning sifatli va mustahkam yasalishi, buyum qismlarini bir-biriga kovshirlash, bekitish usullari sirlari haqidagi ma'lumotlar berilgan<sup>123</sup>.

Rus tadqiqotchisi M. Ivanin asarida XIX asr oxirgi choragidagi Xiva xonligidagi temirchilik va cho'yangarlik ustaxonalaridagi o'choqlarining tuzilishi va ishlash texnologiyalari to'g'risida ilk ma'lumotlar berilgan<sup>124</sup>.

I. Jabbarov tadqiqotlarida XIX asr oxiri XX asr boshidagi Janubiy Xorazmdagi cho'yangarlik, temirchilik va misgarlik sohalarida mahsulot ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari o'rganiladi<sup>125</sup>. Asarda cho'yangarlik, temirchilik o'choqlari konstruktiv tuzilishi, ularda qo'llanilgan asbob-uskunalar, mehnat taqsimoti hamda qulfsozlik, taqachilik va pichoqchilik kabi ixtisoslashgan sohalardagi ishlab chiqarish jarayonlari va mehnat qurollarining o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

Manbalardagi ma'lumotlar temirchilik, cho'yangarlik ustaxonalarining konstruktiv xususiyatlari va ish prinsiplari tarixiy davomiylikni namoyon etadi. Xorazm metallsozlik sohalaridagi metallga texnologik ishlov berish jarayonlari O'rta Osiyoning boshqa viloyatlariga deyarli o'xshash hisoblanadi.

## XULOSA

Xorazm vohasining arxaik davrdan – XVI asrgacha metallsozlik sohaları tarixi, moddiy-ma'naviy madaniyati, iqtisodiy-madaniy va xo'jalik hayotiga oid tadqiqotdan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Arxaik davrda (mil. avv. VII–VI asrlar) temir buyumlar Xorazmga quyi Sirdaryo bo'yidagi sak qabilalarining migratsiyasi orqali kirib kelgan. Bu davrdagi Quyisoy va Ko'zaliqir madaniyatlari yodgorliklaridagi rixtagorlik, qurolsozlik va

<sup>121</sup> Бичурин И. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – СПб., 1851. Т. III. – С. 61–62.; Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. – Т.: Фан, 1984. – С. 187.

<sup>122</sup> Каримова С.У. Алхимическое сочинение ар-Рази «Книга введения в обучение (алхимии)» // Материалы по истории и истории науки и культуры народов Средней Азии. – Ташкент, 1991. – С. 203, 207.

<sup>123</sup> Абу-л-Фазл Хубайш Тифлиси. Описание ремесел (Байан ас-санаат) / Пер. с перс., введ. И коммент. Г. И. Михалевич. – М.: Наука, 1976. – С. 76, 78–80.

<sup>124</sup> Иванин М.И. Хива и река Аму-Дарья. – СПб., Обществ. Полза, 1873. – С. 48–49.

